O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QAHHAROV NADJAT BAVDUNOVICH

# VOKAL ASOSLARI

**(Ovoz va fortepiano uchun)**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari 5141000 – «Musiqiy ta'lim» bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2008

*Taqrizchilar:* Nizomiy nomidagi TDPU professori **Q. MAMIROV**
M.Uyg'ur nomidagi TDSI professori **H. ISROILOV**

Qahharov N.B.
**Vokal asoslari (Ovoz va fortepiano uchun)** Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / N.B. Qahharov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008. –314 b.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlarining musiqa va san'at fakultetlari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabalarning badiiy-ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirilishiga, ularning qo'shiqlari repertuarini xilma-xil shakl va xarakterdagi rang-barang asarlar bilan boyitib borishga alohida e'tibor berilib unga o'zbek kompozitorlarining yangi asarlari, musiqali dramalardan parchalar, romanslar, ariyalar, xalq qo'shiqlari kiritilgan.

Darslikda vokal asarlarini ijro etish yuzasdan annotasiyalar, pedagogik tavsiyanomalar, ovoz apparatining tuzilishi va uni boshqarish, vokal to'g'risidagi asosiy tushunchalar bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

© «IQTISOD-MOLIYA», 2008
© N.B.Qahharov, 2008

## Tuzuvchi muallifdan

Hozirgi zamon talablariga javob beruvchi yetuk kadrlar tayyorlashda ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, xususan, ta'lim jarayonini zarur darslik va o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlar bilan ta'minlash masalalar eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur darslik ham ana shu maqsadda talabalarni badiiy jihatdan rivojlantirish, shu soha bo'yicha chuqur bilim egallashga, vokal texnikasi, ularda vokal malakasini hosil qilish, vokal pedagogikasining tizimlilik, didaktik tomonlari bilan tanishtirish maqsadida tuzilgan.

Qo'shiqchilik san'ati buyicha o'qitish maxsus o'quv dargohlarida vokal darslarida olib boriladi. Unda ovoz hosil qilish malakalaridan boshlab, xonandalik san'atini egallashgacha bo'lgan izlanishlarni o'rganishdek muhim vazifalar bajariladi. Albatta, bunday maxsus vazifa talabalarga manzur bo'ladigan o'zbek kuy-qo'shiqlari orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun mazkur darslikda o'zbek kompozitorlarining yangi asarlari, ya'ni, o'zbek musiqali dramalaridan parchalar, romanslar, ariyalar, xalq qo'shiqlari namunalari o'rin olgan bo'lib, ularni kuylash va ijro malakalariga doir annotatsiyalar va metodik tavsiyalar ham bayon etilgan.

Darslik maxsus o'quv dargohlardagi vokal fani dasturlari talablariga moslashtirilgan bo'lib, unda soprano, alt, tenor, bariton va bas kabi turli ovozlarning kuylashdagi "vokal texnikasi"ni o'zlashtirishga mosdir.

Respublikamizdagi oliy va o'rta maxsus musiqa dargohlaridagi qo'shiqchilik fani o'qituvchilari va keng musiqa jamoatchiligi ushbu darslik haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirsalar, kelajakda mazkur sohada bajariladigan ishlarni yanada takomillashtirishda ko'maklashgan bo'lar edilar degan umiddamiz.

## KIRISH

“Vokal asoslari” fani 1-,2-,3-,4- kurslar mobaynida 232-soat amaliy mashg’ulot, 159 soat mustaqil ta'limdan iborat.

**"Vokal asoslari" fanining asosiy maqsadi** - vokal san'ati vositasida bo’lajak musiqa o’qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, ularning ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishda uzluksiz talabchanlik bilan ish olib borish, ularni o’zbek kompozitorlarining oldingi va yangi asarlari, qardosh xalqlar vokal asarlari, shuningdek, chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan nodir asarlar bilan tanishtirish, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

**Fanning vazifalari**-dars jarayonida talabalarga ta'lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartlariga javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, talabalarni badiiy jihatdan rivojlantirish, ularga vokal texnikasini, uning sirlarini o’rgatish. Shu bilan birga vokal malakalarini hosil qilish, vokal pedagogikasining sistemalilik, izchillik, oddiydan murukkabga o’tish, individual yondashish kabi qator didaktik tomonlari bilan tanishtirish.

### Talabalar bilimiga qo’yiladigan talablar

Vokal sir-asrorlarini chuqur o’rganishi, yuqori professional uslubda kuylay olishi uchun talaba quyidagi malaka va ko’nikmalarni egallashi lozim:

- nafasni qovurg’aning pastiga, qoringa olish, shovqinsiz nafas olish va uni tejamli sarflash;
- barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish;
- sof va toza kuylash;
- so’zlarni aniq, burro talaffuz qilish, unli tovushlarni cho’zib, ravon ovoz qosil qilish, so’zlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash;
- turlicha ovoz hujumlari bilan kuylay olish, asosan, mayin hujum afzalligidan foydalanish;
- kuylashda ovoz dinamikasini hosil qila olish, musiqa asarlari jumlalarini badiiy ijro etishda undan unumli foydalana bilish;
- legato va stakkatoda kuylash;

- ijrochilik kantilenasi rechitativ uslubdan foydalana bilish;
- vokal asarlarini musiqa asbobida o'zi chalib kuylash;
- turli uslub, turli xarakterdagi asarlarni ta'sirli qilib kuylay olish.

**Amaliy mashg'ulotlarning mazmuni.**

Talabalarning ovoz imkoniyatlari va vokal tayyorgarligi turlicha bo'lganligini hisobga olgan holda, dasturning repertuarlar ro'yxatiga murakkabligi turlicha bo'lgan asarlar kiritiladi. Lekin barcha kurslarda vokaliz berib borish zarur, chunki ijrochining ovozi sayqallanishiga, texnik-ijrochilik mahorati olishiga yordam beradi. Ro'yxatga kiritilgan asarlarini talabaning ovoz diapozoniga mos tonlikka transpozisiya qilib berish tavsiya etiladi.

Uzluksiz o'tkaziladigan akademik konsertlar, turli xil ko'rik-tanlovlar, ya'ni "O'zbekiston - vatanim manim", "Respublika qo'shiq bayrami" va boshqa yosh vokalistlar konkurslarida qatnashishlari talabalarni vokal malakalarini mustahkam egallashlariga yerdam beradi. Romans yoki musiqali drama, operalardan ariyalarni ijro etish uslublarini o'rganish, uzluksiz tarzda ma'lum ketma-ketlikda, oddiydan murakkabga borishini ta'minlash zarur.

Romanslar bir ovoz uchun yozilgan, turli mavzu, xarakter va tuzulishdagi vokal kamer asari bo'lishi mumkin. Bu janr jahon va o'zbek kompozitorlari asarlarida yaxshi rivojlangandir. O'zbekiston kompozitorlari omma o'rtasida tarqalgan ashulalar ohangida romanslar yaratib, bu janrni yanada boyitdilar. Ular asosan Navoiy, Furqat, Muqimiy g'azallariga S.Yudakov, M.Burxonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov va boshqa kompozitorlar tomonidan yaratilgan. Talabalar dasturida qo'llaniladigan musiqiy drama va operalardan ariyalar mukammallashgan keng ko'lamda, lirik va dramatik mazmunli asarlar hisoblanadi.

Bu asarlar talabalarning vokal-texnik bilimlarini yanada chuqurroq egallashi, kosta-abdominal, ya'ni aralash nafas ustida ishlashi, yumshoq hujum mashqi, aniq intonatsiya, artikulyatsiya, legato, stakkato, harakatchanlik, kantilena, arpedjio, filirovka uslublarini o'rganish, asarning badiiy tomonlarini mukammal o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ashula aytish mahoratini oshiradi.

# NAZARIY QISM

## Xonandalik ovozi

"Xonandalik ovozi" tushunchasi insonning kuylash qobiliyati bilan bog'liq nutqdan farqli o'laroq, xonandalik ovozi tovushlari aniq balandlikka ega, uzoq davom etishi mumkin. Ular unlilarda namoyon bo'ladi. Xonandalik ovozidan inson bolalikda musiqiy eshitish va ovoz apparati rivojlanishi daraja-siga ko'ra foydalana boshlaydi.

Maishiy (qo'yilmagan) va kasbiy (professional qo'yilgan) xonandalik ovozi farqlanadi. Ovozni qo'yish deb uni professional qo'llash maqsadida moslashtirish va rivojlantirish tushuniladi. Yorqinlik, go'zallik, jarang kuchi va davomiyligi, diapazon kengligi va toliqmaslik, noziklik kabi sifatlar, ko'p jihatdan ovoz apparati tabiiy xossalari bilan belgilanadi va ovozni qo'yish jarayonida rivojlantirilishi mumkin. Ovoz opera-konsert kuylash uchun, xalq qo'shiqlari, estrada kuylash va sh.k. uchun qo'yiladi.

Xonandalik ovozini belgilovchi sifatlar - tembr go'zalligi va tovushni uzoq tutib tura olish. Opera-konsert ovoz katta zallarda yaxshi eshitilishi, ya'ni "parvozga ega" bo'lishi kerak. Jaranglik, metallik ovozlar parvozli. Metallik va parvozlilik ovoz spektirida yuqori opertonlar guruhi, yuqori xonandalik formantash mavjudligi bilan belgilanadi. Ovoz tarangi dumaloqligi va yumshoqligi spektrning past qismi obertonlari kuchlanishiga bog'liq. Yuqori va past xonandalik formantalari, shuningdek vibrato (sekundiga 5-6 martali pulsasiya) ovozning go'zalligi va quyiluvchan xarakterini belgilaydi.

Xonandalik ovozining muhim sifati uning kuchidir. Opera kuylash kuchli, katta zalni to'ldirishga qodir va orkestr to'rligi fonida eshitiladigan ovozni talab etadi. Ovoz tabiatan registrlarga ega. Registr deb, tovushlarning

tembri bo'yicha bir xillik qatori tushuniladi, u yagona fiziologik mexanizm bilan hosil qilinadi. Erkaklar ovozida diapazonning pastki qismida ko'krak va yuqori qismida faltset registr farqlanadi. Ko'krak registri taranglar va boyligi ajralib turadi.

**Ovozlar klassifikatsiyasi.**

Ayollar ovozida ko'krak registri, bosh va ko'krak tarangi birlashgan markaziy va diapazonning yuqori qismida bosh registri (yorqin, ochiq jaranglaydi) farqlanadi.

Professional xonandalik ovozi ikki aktavalik diapazonga ega bo'lishi va diapazonlik butun davomida tekis taranglanish lozim. Bunga aralash jaranglikst rivojlanish hisobga erishiladi. Ovozlar tembr va balandligiga ko'ra tasniflanadi. Ovozlarning asosiy oltita turi farqlanadi:

Ayollar ovozlari:

- soprano;
- messo –soprano;
- kontrato.

Erkaklar ovozlari:

- tenor;
- baritone;
- bas;
- diktant –o'g'il bolalar ovozi.

Ayollar ovozlari quyidagilarga bo'linadi:

koloratur soprano - eng baland ayollar ovozi (diopanozik, cheksiz kumush yuqori tembrli nafis ovoz yengillik eng murakkab ruladalar, keng sakrashlar, nozik melizmlar va hayratomuz bravur paasonxor imkonini beradi.Opera partiyalari: tun malikasi (sehrli fleyta), qo'g'irchoq (Gofman ertaklari), qor qiz (qor qiz);

lirik saprano - (diapazon birinchi oktava do- uchinchi oktava do,re).Kantilen yumshoq, yorqin, jaranglovchi ovoz.Opera partiyalari: Violetta (Traviata), Iolanta (Iolanta), Margarita (Faust);

lirik -dramatik soprano - hajmliroq, juda ifodalali ovoz bo'lib, undayumshoqlik, kantilena va spinto birlashadi.Opera partiyalari: Tatyana (Evgeniy Onegin), Norma (Norma), Aida (Aida);

dramatik soprano - kuchli, hajmli, yorqin tembran ovoz. Bu unga butun partiyani emotsional ko'tarinkilik bilan ijro etish imkonini beradi.

Opera partiyasi: Toska (Toska), Abigal (Nabukko), Turandot (Turandot);

messo -soprano. Soprano va kontralto o'rtasidagi o'rtacha ovoz.

Lirik messo -soprano -tembriga ko'ra yorqin va rangi sopranoga yaqin ovoz (diapazon -kichik oktava lya -ikkinchi oktava lya,si) Opera partiyalari: Amneris (Aida), Eboli (Don Karlos) tana ( may tuni), bahor (qor qiz);

markaziy misso -soprano -yirik, zich, kuchli ovoz. Opera partiyalari: Lyubasha (Shoh kelini), Marfa (Xovanshina), Azugena (Trubadur), Karmen (Karmen);

koloratur messo -soprano - juda noyob, yorqin, nozik va harakatchan ovoz, eng murakkab passajlar, fiorituralar va ruxsidalarni kuylash imkonini beradi. Opera partiyalari: Izabella (Jazoirdagi Italiyalik ayol), Rozina (Sevilya sartarniy), Zolushka (Zolushka);

kontralto - eng past ayollar ovozi. Barxatli, ajoyib ko'krak notali ovoz.

Opera partiyalari: Ratmir (Ruslan va Lyudmila), Konchakovka (Knyaz Igor), Olga ( Ye.Onegin), Ulrika (Bal maskarad).

Erkaklar ovozlari quyidagilarga bo'linadi:

lirik tenor - kumushsimon, yumshoq, juda harakatchan koloriturali ovoz (diapazoni - birinchi oktava do- uchinchi oktava si,do).Opera partiyalari: Lenskiy (E. Onegin), Levko (maytun), Lindoro (Jazoirdagi italiyalik ayol), Graf Alnaviva (Sevilya sartarasin).Lirik -dramatik tanor – ko'proq agint va zich ovoz.Opera partiyalari: (Alfrid (Graviata), Geruog (Rigoletto), Vladimir Igorevich (knyaz Igor);

dramatik tenor - hajmli, yorqin, metali, tabiatan juda kuchli ovoz.Opera partiyalari: Germakn (Dikoaya rama), matushka (trubadur), turidu (qishloq sha'ni), kalif (turandat);

kontr -tenor - mesuo - saprano tessiturashda jaranglaydigan ovoz. Rivojlangan faluet bilan kuylanadi. Qadimiy bar musiqada qo'llanadi (Gendil, Bax,majteerdi);

lirik bariton - baland, yorqin, harakatchan ovoz (diapazoni: katta lya - birinchi oktava lya).Opera partiyalari: Figaro (Sevilya sartaroshi), Don Juan (Don Juan), Don Raskuale (Don Paskuali).Valentin (Faust), Yeleskiy (Pikovaya dama);

dramatik bariton - barxatli, hajmli diapazoniga ko'ra kuchli ovoz.

Opera partiyalari: Amopasro (Aida) Yago (Otello), Dagon (Sosson va Dalila);

bas - eng past erkak -ovozi (diapazoni: katta oktava do- birinchi oktava - re, mi).Yuqori bas - odatda xarakterli, harakatchan, komik ovoz.Opera partiyalari: Don Bazillo (Sevilya sartaroshi), Laparello (Don Juan), Malatesta (Don Raskual), Mustafo (jazoirdagi italiyalik ayol);

markaziy bas- yirik, yorqin, juda sof ovoz, juda boy ko'krak registri.

Opera partiyalari : Boris Godunov, Tegirmonchi (suv parisi), Filipp (Don Korlos), Rene (Iolanta), Konchak (Knyaz Igor);

bas - profundo - juda past, ko'krak, juda hajmli ovoz. Ko'proq cherkov - xor musiqasida ishlatiladi;

diskant –o'g'il bolalar ovozi. Vokal partiyalariga ko'ra past, o'rta va baland diskant farqlanadi.

Tovush paydo qilish organlarining tuzilishi.

Bo'g'iz va burun bo'shliqlari nafas olish naycha yo'llari va o'pka tovush hosil qiluvchi a'zolar hisoblanadi. Hiqildoq nafas olish naychasi (traxeya) va halqum orasida joylashgan. Nafas yo'lining bo'shlig'i tikkasiga kesilgan holda qum soatiga o'xshaydi. hiqildoq ichidan shilimshiq parda bilan qoplangan va to'rtta tomoq tog'ayidan iborat. Ular qalqonsimon, ikkita qora ta'lat va barmoqsimon bo'ladi. Ular o'zaro bog'langan va mushaklar bilan ta'minlangan, tomoq tog'aylari yoshiga qarab sekin - asta suyakka aylanib boradi. Bo'g'izning yuqori bo'limi - ustki boylam bo'shlig'i – yolqon tovush boylamigacha cho'zilgan.

Morganievlar oshqozoni nomini olgan, ikki tomonlama chuqurlashgan qismi yolqon tovush boylamidan haqiqiy ovoz boylamigacha cho'zilgan.

Hiqildoqning pastki boylam bo'shlig'i barmoqsimon tog'ayning pastki chekkalarigacha yetadi, qalqonsimon tog'ay tovush paychasining uzunligiga bog'liq bo'lib, erkaklarda ayollarnikiga nisbatan uzunroq, kuchli rivojlangan. Bu hiqildoqning kattaligiga ta'sir qiladi. Ayollar hiqildoqining eng kattasi taxminan erkaklardagi eng kichkina bo'g'iz bilan teng. Hiqildoq til

ostidagi harakatchan suyakka maqkamlangani va umurtqa oldi muskul pardasi bilan bog'langani sababli hiqildoq asta va faol harakat qilishi mumkin.

Yolg'on tovush boylamlari ashula aytishda qatnashmaydi, lekin ular tarkibida suyuqlik bilan ta'minlaydigan bezlar bo'lib, ular haqiqiy tovush paychasini namlab turadi. Haqiqiy tovush boylamlarining qirqoqlari sadaf rangga ega. Tovush paychasining ishida ikki guruh muskullar: ichki, tashqi cho'ziq muskullar tovush ishtirok etadi. Mazkur guruhdagilarning har biri ma'lum vazifani bajaradi. Tovush mushaklari ko'krak registrida tovush boylamlarining uzunligini, yo'g'onligini, kengligini o'zgartiradi, tovush oralig'ini kengaytiradi va toraytiradi.

Tinch nafas olinayotganda boylamlar orasida uchburchakli keng darcha ochiladi. Tovush darchasi orqali havo bemalol keladi. Hiqildoqni ovqat tushib qolishidan himoya qilish uchun yutingan vaqtda tomoq uchburchakli kemirchak plastinka hiqildoq qopqog'i bilan berkitiladi.

Burunning tarkibi suyakli va kemirchakli skeletdan iborat. Burun bo'shlig'i shilimshiq pardalar bilan qoplangan, bir - biriga teng ikkita yarimlikdan iborat bo'lib, bu joy burun chig'anog'i deyiladi va ularning ostidan bir nechta burun bo'shlig'idagi chiqish joylari ochiladi: peshonali, yiringli, panjarasimon.

Halqum naysimon oraliq tushunilib, yuqorisi bosh miyaning tubi bilan chegaralanadi, pasti esa hiqildoq va ovqat yo'liga o'tadi. Oldindan unga og'iz va burun bo'shlig'i o'tadi, natijada uchta alohida anatomik kimyo paydo bo'ladi: burun - halqum bo'shlig'i bo'g'izi, og'iz- halqum bo'shlig'i bo'g'izi, va halqumning o'zi.

Esnash yuqoridan tanglay pardalari bilan, pastdan esa ikki tomonlama tanglay dutachasi orqali tilgacha chegaralangan. Tanglay pardasi shilimshiq pardali plastinka bilan qoplangan va orqaga davom etgan qattiq tanglay hisoblanadi. Kichkina tilcha yumshoq tanglay ўrtasida joylashgan, o'zining shaxsiy mushaklariga ega.

Hiqildoq nafas yo'ligacha davom etgan - naycha halqali tomoq kemirchaklaridan tarkib topgan. Traxeya ikkita yirik nafas yo'liga bo'linadi, u hamma narsaning bo'g'izigacha maydalab ikkita o'pka hosil qiladi. Ko'krak bo'shlig'i qorin bo'shlig'idan diafragmasi bilan ajratilgan. Bu kuchli mushak

orqasidan umurtqa pog'onasigacha, oldindan esa oftob o'ramasi bilan mustahkamlangan.

(Maneken va jadvalni diqqat bilan o'rganish nazarda tutiladi.)

**Vokal musiqa pedagogikasining asosiy tamoyil (prinsip) va uslublari**

Ta'lim berish jarayonida "Vokal asoslari" fani muhim o'ringa ega, chunki u kasb yuzasidan olinayotgan bilimga amaliy tushuncha bera oladi. Talabalarga vokal san'atini o'rgatish jarayonida hamma xonanda- o'qituvchilar to'rtta bosh tamoyilga asoslanadi:

1. Ta'limda ketma - ketlik va uzluksizlik tamoyili. Bu umumpedagogik tamoyil bo'lib, u ta'lim jarayonida soddadan - murakkabga asoslanadi. Uzluksizlik hamma narsada zarur - xonandaning diapazonini kengaytirishda ham, mashqni murakkablashtirishda ham, repertuar tanlashda, ruhiy kechinmada - lirikadan dramatik asarlarga (his – tuyg'ular cho'qqisiga), repertuarni kuchaytirilishi ovozni yo'qolishiga olib boradi. Talabalar bilan mashqulotlarda ovozning sifati, toblanishi, tebranishi, uzoqqa yetishi haqida qayqurish kerak. Repertuarni kuchaytirishga yo'l qo'ymaslik kerak.

2. Badiiy - musiqa va vokal texnik tamoyillarining birligi. Xonandani qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish - demak xonandani professional ovozini hosil qilish va unda aytishni mashq qilish. Bu ikki masala bir vaqtda bir - biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Har qanday, hattoki, eng sodda ko'nikmani elementar ijro etish uchun avvalo, ovozga ishlov berish, shundan so'ng ijro mahoratini egallash kerak, deb o'ylagan katta xatoga yo'l qo'yadi. Busiz aktyor -xonandani tarbiyalash mumkin emas.

3. Alohida yondoshuv tamoyili. Xonanda - bu o'ziga xos musiqiy asbob. Hammasi juda alohidalikni talab qiladi. O'zgaruvsiz (dogmatik) ko'rsatmalar vokal pedagogikasiga zarar yetkazadi. har bir o'quvchining imkoniyat darajasi har xil bo'ladi, chunki uning ovozini kuchi va chidamliligi shaxsiy xarakteriga bog'liq. Ayniqsa, uning ruhiy xususiyatlarini bilish va ularga ahamiyat berish, ovozga ortiq ruhiy ta'sir ko'rsatmaslik kerak. O'quvchi xarakteri hamma sohada

mustaqil ravishda ovozning mayinligida ham, kengligida ham, quvvati, chidamliligi, sifatida hamda iste'dodli, serg'ayrat, hayoli, irodali yoshlarda ochiq - oydin namoyon bo'ladi. Shu sababli darslarni yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda o'tkazish kerak.

4. Muntazam mukammallikka erishish tamoyili. Bu tamoyil ohirgi 15 yildan beri ovoza qilingan. Agar o'quvchi o'z ustida mustaqil ravishda shug'ullanmasa pedagog mashg'ulotlarida bergan bilimining o'quvchiga foydasi bo'lmaydi. Ta'limning so'nggi jarayonlarida talabaning mustaqil tayyorlanishiga alohida ahamiyat beriladi.

Tamoyil - bu asosiy g'oya, uslub esa maqsadga erishish yo'li. Vokal pedagogikasida quyidagi uslublar mavjud:

1. Sozli.
2. Tajribaga asoslanish (emperik).
3. Bir markazga ega bo'lish (konsentrik) - Glinka uslubi.
4. Primar tonli - nemis vokal maktabi.

## Talaba tovushiga o'qituvchining ta'sir etish usullari. Talabalar bilan birinchi darslar.

Xonandani tarbiyalash jarayonida o'qituvchi turli usullardan foydalanadi. Birinchi o'rinda vokal eshitishni tarbiyalash va mukammallashtirib borishga nazorat bilan barcha vokal sifatlarini rivojlantirish turadi. Talabada xonandalik jarangdorligini to'g'ri tashkil etish haqidagi tasavvurni ishlab chiqish zarur. Ta'lim doimo musiqa materiallari mashq, vokal va badiiy asarlar asosida olib boriladi. To'g'ri tanlangan musiqiy manba tovushni tarbiyalaydi. Mashq - bu bilim olishning asosiy vositasi.

Ularni qo'llash talabalar tovushida uchraydigan va tuzatishni talab etadigan kamchiliklarni yo'qotish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Ovozga sayqal berish mashqlari - mashqdan badiiy asarlarga o'tish uchun foydali manba hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan katta odob saqlagan holda badiiy pedagogik manba tayyorlash talab etiladi. Manbalarni musiqiy, vokal - texnik va ijro qiyinchiliklarini e'tiborga olib tahlil etish – o'qituvchining zaruriy sifati hisoblanadi. Keng ko'lamli musiqiy pedagogik manbalarni egallash va ularni

qo'llay bilish - pedagogik faoliyat muvaffaqiyati talablaridan biri. Asarni muvaffaqqiyatli ijrosi uchun o'rganish va ashula aytish usuli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi asarlar ustida ishlash uslubini keng kulamli va turli - tuman repertuarlarni tezroq o'zlashtirib olishi uchun o'rganishi kerak.

Tovush sifatini ko'zlangan natij:ada tarbiyalashda ovozni ko'rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali qurollar ko'ra oladigan va sodda bo'lgani uchun ham kerakli ko'nikmalarni shaxsan topishga majbur etadi. Buning uchun o'qituvchining o'zi ham yaxshi ovozga ega bo'lishi lozim, o'quvchi esa - taqlid qobiliyatiga ega. Biroq taqlid kuylashni o'rganishda majburiy hisoblanmaydi. Masalan, Lamperti xonanda bo'lmagan, biroq buyuk xonandalarni tarbiyalagan.

Muskul usullarini ko'rsatish va tushuntirish o'qituvchi amaliyotida katta o'rin egallaydi. Muskul usuli doim muayyan narsalarni qamrab oladi, doim to'xtata oladi yoki tovush apparatidagi ishlarning qaysidir qismini o'zgartiradi. O'quvchi avval nima qilishini tushunib oladi, keyin esa bu harakatlarni ashula aytish paytida tushungan holda qullashga harakat qiladi. Muskul usulining qimmatligi ham mana shundadir. Nutq orqali tushuntirish, so'z ahamiyati - ovoz tuzilishi haqidagi ishonchli tushunchani tarbiyalashda o'ta muhim omil sanaladi. Ashula aytishni o'rganishda nutq orqali tushuntirish juda muhim, negaki tovush apparati ishida sababli - kuzatuvli o'zaro hamkorlikni tushuntiradi va uning ishini bir muncha aniq tushunib yetishga imkon beradi. Tovush va muskullarni his etishni nutqiy tushuntirish har doim ham o'zini oqlayvermaydi, o'qituvchi ko'pincha qiyoslashga, obrazli ifodalashga harakat qiladi. Agar ular o'quvchilarga tushunarli bo'lsa qo'llaniladi va kerakli javob harakatlarini keltirib chiqaradi.

## Talabalar bilan ilk saboqlar

Yangi talabalar bilan tanishishda uning imkoniyat va qobiliyatini (nimaga qodirligini) tushunib olish o'qituvchining birinchi darajali vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabaning ashula aytishi uchun unga ma'lum bo'lgan mashqlardan berish kerak. Boshlanishida betaraflik holatini ushlash kerak, negaki talaba ovoz imkoniyatlarining sifatli jihatini ko'rsata olish. Darslar 20 - 25 daqiqadan

ortmasligi lozim. Imkoni boricha darslar oralig'ida tanaffusdan foydalanish kerak. Mashg'ulotlarni o'rta diapazonda, chetki notalarni qamrab olgan qolda o'tkazish kerak bo'ladi. Aynan shu xonandaga mos optimal tovush kuchini topa bilish kerak. O'tkaziladigan mashqlar murakkab bo'lmasligi kerak. Mashqlarning musiqiy bajarilishini talab etish nazarda tutiladi. Eng birinchi tadbirlardan biri o'quvchi bilan birgalikda fonitar -vrach qabuliga tashrif buyurib, uning tovush apparati baholanadi va ayni vaqtdagi holati aniqlanadi. Uning bahosi tovush turini aniqlash uchun foydali bo'lishi mumkin.

## Xonandalik ovozini aniqlash

Ovoz imkoniyatlari tembr, tassitura, diapazon, o'tish notalari va primar jarang kabi belgilar yig'inidisiga ko'ra aniqlanadi, shu sababli vokal ishi ovoz va musiqiy imkoniyatlar bilan tanishtirishdan boshlanadi.

Tembr - ovoz bo'yog'i (yumshoq, tez, quloq,tarangli,barxat vash .k.) Tembrga ko'ra har bir ovozga tovushlar bo'yoq tipiga ko'ra rang topish mumkin, iliq va sovuq tonlardan foydalanib. Masalan:Bolalar so'roviga ko'ra tovush ranga belgilashadi ko'p yillar davomida aynan bir xil ranglar belgilangan.

fa - sariq (iliq)

sol - ming (Mayin)

lya - qizil (barqaror, quyuq)

si - havorang, deyarli to'q ko'k (uchuvchan, ba'zan irmoqqa o'xshatiladi)

do 2 -oq,

mi 1 - qavorang, ba'zan nastarin rangi (sovuq)

re 1 - jigar rang (bir ovozdan) - (quyuq, iliq).

do 1 - qora

Diapazon tovushlar yig'ilish bilan belgilanib, uni ovoz bilan kuylash mumkin (o'quvchi diapazonini aniqlash). Diapazon -chekka yuqori notadan chekka past notagacha masofa. Odatda ishchi (mashq) diapazoni konsert diapozonidan kengroq.

Tessitura - asar tovushlarining diapazonga nisbatan yuqori joylashuvi.

Tessitura turining asardagi diapazon birinchi qilishning balandligi belgilaydi. Yuqori baland tovushlar bo'lsa, demak tessitura baland va sh .k.

Diapazonni mashqlarda aniqlash mumkin: bosqichli joylashgan notalar ( yaxshisi bitta unli tovushda jarangli undoshlar bilan) uch ovozliliklar (trezvuchie) kuylash. Diapazonni belgilash ovozning o'rta uchastkasidan, sekvension pastga va yuqoriga yarim tonlar bo'yicha boshlash kerak.

Diapazonni belgilashda o'tish notalari aniqlanadi. O'tish notalari, jarang xarakteri, bosh va ko'krak notalari hajmi ovoz tilini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ovoz imkoniyatlari bilan tanishishda va diapazonni belgilashda erkin va tabiiy jarangga ega bitta yo bir nechta tovushni almashtirish mumkin. Bu jarang primar jarang,bunday jarangli tovushlar -primar tovushlar deyiladi. Ovoz tembri va tili ularda yaxshi namoyon bo'ladi. Tabiiy tembrni aniqlash - pedagogning birinchi galdagi vazifasi.

M.I. Glinka kuylashga o'rganishni primar tovushlardan boshlab, ularning jarang sifatini diapazonning barcha tovushlariga o'tkazishni taklif qiladi.

Vokal va musiqy imkoniyatlar bilan tanishgandan keyin yakka tartibda ish boshlanadi.

## Xonandalik registrlari.

1. Past registr: kichik, katta vash .k. oktavalar (erkaklar ikki registrga ega ko'krak va faluet).

2. O'rta registr: I oktava (sin - re-2)(ko'krak va bosh ovozlar birlashishi patsnuial uchtastkasi)

3. Yuqori registr - II oktava, ayollar balandroq kuylashi mumkin (Ayollar ko'krak, o'rta (midium - mixt) va bosh registrga ega)

4.Super bosh registri - ayollar diapazoni to'rtinchi o'tish uchastkasida joylashgan uchastok, bunda odatiy bosh ovozidan ketish, shuningdek erkinlik tuyg'usi seziladi. qizlarda si - dan va yuqori kuzatiladi.

## Vokal eshitish (vokalniy slux).

Tovush hosil qiladigan harakatlar bilan tovush holatda tasavvur aloqasi vokal eshitish asosidir. Bu tushuncha shuningdek, boshqa hislar: vibratsion, rezonator va to'qima osti boshi hissini ham o'zgacha oladi.

Vokal eshitish deb nafaqat to'g'ri xonandalik jarangi xususiyatlarini sezish, ularni noto'g'risidan farqlash, balki ovoz apparati ishini sezish, boshqa xonanda u yoki bu jarangda nima qilayotganini mushaklarda his qilish tushuniladi. Nafaqat ovoz jarangini tinglash, balki uning kuylash chog'idagi ishini aniq tasavvur etish, ovoz apparatida nima bo'layotganini sezish -har bir xonanda va pedagog egallash lozim bo'lgan vokal eshitish aynan shu.

Vokal eshitish asta-sekin, vokal texnikasini egallagan sari rivojlanadi. kuylashni boshlaganlar, odatda, buni bilishmaydi. Boshlovchi xonanda u yoki bu jarang qay tarzda hosil bo'lishini na hislarda tasavvur qiladi va na mushaklar bilan tushuna oladi. Asta - sekin u eshitishga tayanib texnikani ishlaydi va unda eshitish tasavvurlari va uning mushakda aks etish o'rtasida ko'p sonli aloqalar shakllana boshlaydi. Shu asosda kuylash chog'ida ovoz apparati ishini tasavvur qilish va sezish qobiliyati rivojlanadi.

Shunday qilib, vokal eshitishni shakllantirish vokal ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida kechadi. "Kuylay oladigan kishi, oldindan, ya'ni tovush hosil bo'lish momentidan avval mushaklarni ma'lum va oldindan belgilangan musiqiy tonni amalga oshirish uchun barcha mushaklarni qay tarzda yetkazishni biladi; u hatto mushaklar bilan, ovoz yordamida o'z tafakkuri uchun kuylash mumkin, istalgan tanish qo'shiqni" mashg'ulotlar vaqtida vokal pedagog o'quvchi texnologiyasini tahlil qiladi: uning ovoz apparati ishini o'z mushaklarida tasavvur qiladi.

O'quvchi kuylaganda vokal pedagog hamma vaqt u bilan birga ichida kuylaydi va shu sababli kamchiliklarni to'g'rilash uchun kerakli mushak usulini aytib bera oladi. O'quvchi esa boshqa xonandaning vokal texnologiya xususiyatlarini o'z ovoz apparati mushaklari vositasida xis etgandagina idrok eta oladi.

Tovush va ovoz apparati ishi haqida tasavvurlar o'rtasidagi o'zaro uzviy aloqalarni ayrim xonandalar chiqish oldidan to'qri xirgoyi uchun, pal mushak

energiyasini sarflamay qo'llashdadi.Yaxshi xonanda kuylaganini diqqat bilan tinglash apparat ichki kuylash tufayli kuylovchi holatga kelishi uchun yetarli. Faol ichki kuylash ovoz apparatini amalda ovoz chiqarib kuylash kabi "qizdira"oladi.Bu o'zaro aloqa asosida chiqishdan oldin hech qachon yomon kuylash, noto'g'ri jarangini eshitmaslik kerak. Ko'p tinglash ham mumkin emas, toki ovoz apparati ko'p musiqa eshitishdan toliqishi mumkin.

Fiziologik tomondan xonandaning vokal eshitish asosida qobiqda bir vaqtda ta'sirlangan uchastkalar orasidagi reflektor aloqalar hosil bo'lishi yotadi. Kuylash chog'ida xonanda o'z ovozini eshitadi, ovoz apparati ishi haqida kinestik tasavvur oladi; turli vibrasion hodisalarni sezadi, agar oyna oldida kuylasa, o'z harakatlarini ko'radi va sh .k. Bir so'z bilan, turlixil hislarning butun kompleksi bir paytda va ko'p marta harakat qilgani bois bu barcha hislar o'rtasida mustahkam aloqa hosil bo'ladi.

Miya qobig'i harakat hujayrasining qobig'ning boshqa sohalari bilan aloqasi, Pavlov aytgan kompleks analizator bilan, aloqasi ko'p sonli va turfa keng. "qobiqning kinestezik xujayralari qobiqning barcha qujayralari, barcha

Tashqi ta'sirlar kabi organizmning turli ichki jarayonlari vakillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin va amalda bog'lanadi ham. Bu harakatlar ixtiyoriyligi, ya'ni fiziologik asosdir". Shunday qilib, ovoz ustida ishlash barcha jarangni nazorat qiluvchi analizatorlar tizimi o'rtasida aloqalar rivojlanishi bilan kechadi.

Vokal harakatlarni sezgi organlari kompleksi boshqaradi. Shu sababli har bir xonanda nafaqat o'zi chiqarmoqchi bo'lgan jarangini ichki eshitish bilan eshitadi, balki sezadi qam. Har bir xonanda "vokal jaranginining tana sxema"siga ega, unga turli organda va ovoz apparati qismlaridan turli sezgilar kiradi.Shunga ko'ra, vokal texnikasining turli tiplari bu sezgilar tizimida turlicha aks etadi.

Xonanda sezgilari ancha indiviudal bo'lsa-da, ular orasidan u yoki bu jarang tili uchun xarakterlarini ajratish mumkin. Masalan, jarangning bir tipida tovush tishlar oldida; boshqasida temen sohasida va sh .k. seziladi. Bu ovoz hosil qilish texnikasi tiplarini ular keltirib chiqargan sezgilarga ko'ra tadqiqotchisi Raul Yusson o'z imkonini berdi.

y-6795/1

Sezgi organlari butun ansambli tovush hosil bo'lish momentida harakatga kelganiga qaramay, ularning ayrimlarigina tovush hosil qilish ustidan ongli nazoratda qatnashadi.

Yuqorida aytilganidek, katta e'tibor qaratiladigan sezgilargina yaxshi rivojlanadi. Faollik, qaysidir analizator faoliyatiga e'tiborni jamlash, aynan shu analizatorning umumiy kompleksda ustuvor rivojlanishga olib keladi. Shu sababli jarangning "tana sxemasida" birinchi planda sezgirlikning turli ko'rinishlari bo'sh, boshqalarda resonator sezishi.

Agar shogird e'tibori asosan rezonator sezgilarga qaratilgan bo'lsa, ular vokal sxemada rivojlanganligi va yorqinligiga ko'ra ustuvor o'rin tutadi. Bordi-yu, nafas apparati ishini mushak sezishga e'tibor qaratilsa, demak, ular umumiy kompleksda yetakchilik qilishi mumkin va q.k.

## Ovozni qo'yish

Ovozni qo'yish - kuylovchining eshitish va mushak ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni, yaxshi xonandalik odatlarini ishlash. Kuylashga o'rgatishda asosiy vazifa - ovoz va eshitish, badiiy didni rivojlantirish. Tovush ustida ishlash jarayonida to'g'ri xonandalik ustanovkasi, nafas tayanchi ko'nikmalari egallanadi, nafasni to'qri taqsimlash, to'qri xonandalik pozisiyasi o'rganiladi, bu ovozning jarangliligi, parvozliligi, yig'iqligi kabi sifatlarni baxsh etadi.

Vokal mashg'ulotlari boshida, odatda ovoz apparatini "qizdirilgan", vokal ko'nikmalarini shakllantiradigan va rivojlantiriladigan mashqlar bajariladi.

Cholg'u asbobi jo'rligisiz kuylash solo kuylash sinfida o'qish mazmuniga kirgan maxsus ko'nikma bo'lib, bunday kuylash jarayonida xonandalik tovushning tembr, dinamik va tovush balandligi haqidagi eshitish tasavvurini komponentlari rivojlanadi.

Kuylash faoliyatining amaliy turi sanaladi. Vokal o'qitish ko'p jiqatdan xonandalik ovoz hosil qilish, amaliy kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirshdan iborat bo'ladi.

Kuylashga o'rgatishda ovoz apparati a'zolari kuylovchilik vazifalariga maxsus moslashtiriladi. Kuylovchilik tovushi, jarang xarakteri haqidagi

tasavvurlar musiqiy - mazmunli ifodalilik bilan belgilanadi va ovoz apparati ishiga ta'sir etadi.

Vokal jarangi ifodaliligi, tovush sifati vokal - texnik ko'nikmalar: nafasni rezonatorlar ishi, talaffuz apparatini egallashga bog/liq. Biroq texnik ko'nikmalarni shakllantirish emotsional yo'nalish va badiiy ifodalilik bilan birga olib borilishi lozim.

Xonandalik ovozga kasbiy talablar bu jarangdorlik, parvozlilik, yaqin chiroyli jaranglash. O'qitishning boshlang'ich bosqichida vokal - texnik ish ustuvorlik qiladi.Ovozning asosiy boshqaruvchisi (regulyatori) eshitish sanaladi. Ovoz va eshitishni rivojlantirish kuylashga o'rgatishdagi asosiy vazifa. Kuylovchilik tovushi turli xususiyatlarini eshita olish, uni shu xususiyatlariga ko'ra taniy olish, ya'ni ovoz apparati ishiga ko'ra tanish vokal eshitish deyiladi. Tovush hosil qilishda nafas olish muhim omil sanaladi.

## Xonandalik nafas olishi.

Xonandalik nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida kuylovchilik tovush ustida ishlash jarayonida kechadi va asta -sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Faqatgina kuylash bilan bog'liq tashkil etilgan, tinch nafas olish "tayangan" tovush uchun sharoit yaratiladi. Bunday tovush to'liq va chiroyli eshitiladi.

Ovoz hosil qilishdan oldin nafas olinadi nafasning bu fazasini nazorat qilish mumkin, bu o'qitish uchun juda muhim. Xonandalik nafas olish jarayonida o'pka havoga to'ladi va ovoz apparati ovoz hosil qilishga tayyorlanadi. Xonandalik nafasi shovqinsiz ancha chuqur, yarim esnash tuyg'usi bilan olinadi.

Nafas olganda ko'p miqdorda havo olish yaramaydi, zero tovush berish va ovoz hosil qilish jarayonining o'zi qam qiyinlashadi. Xonanda nafas olishi va chiqarishi nafasni bir zum tutib turishi bilan ajratiladi, keyin nafas chiqarish boshlanadi. Tovushni qayta yaratishdan oldin nafasni bir zum tutib turish - nafas olish holati, nafas olish pozisiyasini fiksasiyalash momenti nafas olish ustanovkasi butun kuylash davomida , butun fiksasion nafas chiqarishda

saqlanish kerak, bu nafas tayanchini tashkil etadi. To'qri nafas chiqarishning asosiy vazifasi uni ohista, tejamkorona chiqarish ovoz to'qimalari normal ishlashi uchun zarur bo'lgan to'qima osti bo'shlig'ida bosim yaratishdan iborat. Nafasni uni oxirigacha tovushga aylantirib sarflay olish xonandalik nafasini egallaganlik mahoratini belgilaydi.

Vokal-pedagogik amalyotida pastki qovurg'a - diafragmatik, ya'ni aralash nafas olish eng qulay sanaladi. Nafasning bu tipda ko'krak qafasi va diafragma ishga faol kirishadi: nafas olish ularning bir paytdagi harakati bilan kechadi, bu to'liq nafas olish imkonini beradi. nafas va ovoz to'qimalari o'zaro ta'siri tovush tayanchini belgilaydi. Boshqacha aytganda, xonandalik tayanchi - ovoz apparatining barcha qismlari (bo'g'iz, nafas a'zolari va ustki trubka) muvofiqlashgan ishi natijasi.

Xonandalik tayanchining asosiy mezoni qayta yaratilgan tovush sifatidir. Bu yig'iq tembr bo'yog'iga boy, yaxshi eshitiladigan, dumaloq tovush. Shu sababli ta'lim boshlanishida to'g'ri tashkil etilgan nafas olish va tovush atakasi birinchi darajali muhim moment sanaladi, zero ko'p jihatdan xor jarangini belgilab beradi.

Ovoz to'qimalari va nafas hamkorligining boshlang'ich momenti -tovush atakasi deyiladi. Ataka tovush paydo bo'lish momenti. Ovoz hosil qilishning boshlang'ich momentida ovoz to'qimalari ishini tashkil etayotib, ataka izchil jarangni belgilaydi. Tovushni olish usulini ixtiyoriy o'zgartirib bu bilan ovoz

to'qimalari ish xarakteriga ta'sir etamiz, ular irodamizga bevosita bog'liq emas. Vokal pedagogik amaliyotida yumshoq va qattiq ataka qo'llanadi. Ataka kuylashda ifoda vositasi sanaladi.

Kuylash - musiqiy tashkil etish so'z bilan bog'liq bo'lgan musiqa san'ati. musiqiy nutq hosil bo'lishida nutq a'zolari: og'iz bo'shlig'i, til, yumshoq tanglay, pastki jag', bog'iz, hiqldoq qatnashadi. Bu a'zolarning (unli va undosh) nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi artikulyasiya (talaffuz) deyiladi.

Talaffuz a'zolari alohida ahamiyatga ega.Bu ovoz apparatining eng harakatchan va irodamizga buysunadigan qismi. Pastki jaq harakati, lablar ishi, yumshoq tanglay holatini ko'ra olamiz. Bu a'zolar ishi avvalo bo'g'iz bilan

bog'liq. Talaffuz a'zolari ishi sustligi, xuddi zo'riqish kabi butun ovoz apparati ishiga ta'sir qiladi.

Kuylashda yumshoq tanglay va bo'qiz ham sozligi juda muhim, zero ongimizga bo'ysungan yumshoq tanglay orqali bo'g'izga uning barqarorligiga ta'sir etamiz. Yumshoq tanglayning esnash holatiga kelishi unlilar shakllanishga sharoit yaratadi, ularning dumaloqlashuviga, tembri, bo'yog'i, yuqori pozisiyaga ta'sir etadi. Yuqori tonlar yumshoq tanglayning baland ko'tarilishi, baland "gumbaz" ni talab qiladi. Bu ayniqsa erkak ovozlarida yuqori tonlarni shakllantirishda muhim. Kuylashga o'rgatish boshdanoq esnashga o'rgatishda qat'iy e'tibor qaratish lozim. Esnash nafas olish pozisiyasining tarkibiy qismi sanaladi.

Artikulyasiya organlarning kuylash skladi kuylash unililarrosil bo'lishda nutqiy unlilardagidan akustika, formatiga ko'ra farqlanadi. Kuylash undoshlari ham shunday xususiyatga ega fonislar (alohida nutq tovushlari ) yordamida xonandalik ovozi va ovoz apparati ishiga ta'sir usuli vokalga o'rgatishning fonetik metodi bo'lib, vokal pedagogikada keng tarqalgan va samarali hisoblanadi.

Artikulyasiya organlari ishi intensivligi va muvofiqlashganligi nutq tovushlari talaffuz sifati, so'zlar aniqligi diktsiyani belgilaydi. Artikulyatsiya apparati ishini shunday tashkil etish lozimki, tez va intensiv harakatlar, ayniqsa til harakatlari bo'g'izning kuylovchilik ustanovkasini buzmasin, hiqildoqni deyarli qo'zg'atmasdan, tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatish lozim.

## Nafas olish turlari.

Nafas olishning quyidagi tiplari farqlanadi:

1.Ko'krakda nafas olish. Bunda ko'krak qafasi a'zolari faol ishlaydi Tashqi nafas olish harakatlari ko'krak qafasi devorlari faol harakatlardan iborat bo'ladi. Diafragma kam harakatchan, nafas olishda qorin ichga tortilgan. Ko'krakda nafas olish turi klavishlar yoki yuqori –ko'krak nafas olish, bunda, ko'krak qafasi, yuqori bo'g'ini, yelka va bo'yin mushaklari faol ishtirok etadi. Bu nafas olish yuzaki, bo'yin mushaklari zo'riqqan, hiqildoq harakatlari cheklangan, shu bois ovoz hosil qilish qiyinlashadi.

2.Aralash, ko'krak -qorin nafas olish. (suyak - abdominal). Ko'krak va qorin mushaklari,diagramma faol.

3. Qorinda yoki diafragmatik nafas olish. Bunda diafragma va qorin bo'shlig'i mushaklari, jumladan biz ko'radigan qorin devori mushaklari,faol qisqaradi, ko'krak qafasi devorlari nisbatan teng. Erkaklar va ayollar nafas olishida ayrim tafovut mavjud. Erkaklar uchun "past", qorin nafas olishiga yaqin nafas olish xos. Ayollar ancha "yuqori" nafas oladi, ularning nafas olishi ko'krak tayanchiga yaqinroq.

## Nafas tayanchi

Nafas tayanchi - nafas olish mushaklari "o'yini", ularning qisqarganda, ya'ni harakatlanganda aniq muvoffiqlashgan o'zaro hamkorligi. Tayanch plastik, nozik, egiluvchan bo'lishi kerak. Xonandalik tayanchining asosiy mezoni qayta yaratilayotgan tovush sifatidir. Tartibli, tembr bo'yoqlariga boy, yaxshi kelayotgan, tanlangan tovushni vokalchilar tayangan tovush deb bilishadi. Unga zid o'laroq, tayanmagan tovush tembri qashshoq, xorg'in, rangsiz, yetarlicha "parvozsiz", optimal kuchdan pastroq bo'ladi.

Tovush atakasi - nafas va ovoz apparati hamkorligida tovushning yuzaga kelish vaziyati.

Nafas olish va tovush atakasi birinchi darajali muqim moment, zero ular jarang xarakterini belgilaydi. Tovush atakasi ovoz to'qimalari va nafasning o'zaro hamkorligi turli variantlari bilan belgilanadi.

## Ataka turlari:

1. Qat'iy ataka.2. Yumshoq ataka. 3. Nafasli ataka.

Qat'iy ataka.

Nafas chiqarish boshlanguncha, ovoz to'qimalari zich birlashadi, ovoz tovushi qat'iy, keskin qat'iy atakadan musiqiy ifodalilik vositasi sifatida asar xarakterini berishda foydalaniladi. Bundan tashqari, u bo'g'izni faollashtirish uchun qo'llaniladi.

Yumshoq ataka.

Ovoz (un) paychalari birlashishi momenti nafas chiqarish boshlanishiga to'g'ri keladi. Yumshoq ataka kuylashda ko'proq qo'llaniladi. Bo'g'iz jarangi (siqillishni) bartaraf qiladi. Yumshoq atakada tovush elastik, parvozli yumshoq bo'ladi.

Atakaning turlariga o'rgatish mumkin, o'rgangan xonanda tovush bo'lish usullarini ongli almashtiradi. Bu juda muhim, zero tovushni berish usuli ma'lum registrni qayta yaratish bilan bog'liq. Ataka, ovoz to'qimalari tovush hosil qilishning boshlang'ich momentida tashkil etilib, keyingi jarangni belgilaydi.

Tovushni olish usulini ixtiyoriy almashtirib, biz ovoz to'qimalari ishi xarakteriga ta'sir eta olamiz. Shu sababli ataka ovoz to'qimalari ishiga ongli ta'sir etishning eng muhim vositasi, u irodamizga bevosita bog'liq emas.

Insonning kuylovchilik ovozi obertonlarga boy. Obertonlarning balandligi, kuchi, miqdoriga ko'ra turlicha birikmalari jarangning umumiy fanini, tovush bo'yog'i yoki tembrini yaratadi.

Ovozning individual tembri ovoz apparatining anatomik xususiyatlari bilan belgilangan, biroq shuningdek, ovoz to'qimalari va nafas to'qimalarining muvofiqlashgan ishi, rezontorlar ishiga bog'liq shu sababli ta'lim jarayonida tembr sifatiga ma'lum darajada ta'sir etish mumkin tomoq va burun yontovushlarini to'qrilash butaolishsol bo'la oladi. Tembrni ovoz to'qimalari va talaffuz organlari ishiga ta'sir etib o'zgartirish mumkin.

## Diksiya va artikulyasiya.

Kuylash - musiqa san'atining kuy va so'z organik uyg'unlashgan turi. Boshqachasiga uni musiqiy nutq deyiladi. Nutq tovushlarini hosil qiladigan ovoz apparatining qismi artikulyasiya (talaffuz) apparati, uning tarkibidagi a'zolar talaffuz a'zolari sanaladi. Bular: til, og'iz bo'shlig'i, yumshoq va qattiq tanglay, pastki jag', bo'g'iz, hiqildoq. Bu a'zolarning nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi artikulyasiya deyiladi.

Xonandalik artikulyasiya nutqi ustidan farq qiladi. Kuylaganda unlilar dumaloq, cho'ziq, tembr va tovush balandligiga ega bo'lishi kerak. Undoshlar esa siniq va tez talaffuz qilinadi. Artikulyasiya apparati ishining

muvoffiqlashganligi va intensivligi tovush talaffuzi sifati, so'zlar aniqligi - diksiyani belgilaydi.

Kuylashda to'g'ri talaffuz adabiy tilning talaffuz normalari - orfoepiya (grekcha to'g'ri nutq) ga tayanadi. Xonandalik orfoepiyasi so'zlashuvdagidan farq qiladi, kuylaganda undoshlar keyingi bo'g'inga ko'chiriladi, toki bo'g'in ochiq bo'lsin.

## Rezonatorlar

U yoki bu ovozga ma'lum bo'yoq, xarakterli tembr beradigan ovoz apparatining qismi rezonatorlar farqlanadi. Yuqori bosh rezonatorlariga ovoz to'qimalaridan yuqorida joylashgan bo'shliqlar: burun yo'llari, gaymorovlar va peshona "qorin"lari kiradi.

Pastki rezonatorlarga ko'krak qafasi (ko'krak, alveollar, bo'sh tanali bronxlar) kiradi. Kuylash choqida har ikki rezonatorlardan foydalanish kerak. Yuqori rezonatorlar ovozga parvozlilik, jarangdorlik, ko'krak rezonatorlari esa yumshoqlik va to'liq jarang baxsh etadi.

## Musiqiy ta'lim muassasasida yakkaxon kuylashga o'qitishda milliy kadrlarni tayyorlashning o'ziga xosligi.

## O'zbek milliy qo'shiqchiligining qadr topish xususiyatlari.

Qadimgi qo'shiqchilik san'ati janrlari va shakllari rang-barang bo'lib, ular ijtimoy turmush, xalq an'analari hamda marosimlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlari qo'shiqchilik san'ati asosan madhiyalar, allalar, yig'i, xarbiy chaqiriqlar, ibodat qo'shiqlari, tantanalar bayramdagi qo'shiqlar tarzida namoyon bo'lgan.

Qadimgi davlatlarda qo'shiqchilik san'ati xalq san'ati shaklida paydo bo'lib keyinchalik sifiy jamiyatga ўtish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli ajralib chiqa boshlagan.

O'rta Osiyoda eramizdan avvalgi dastlabki ming yilligning birinchi yarimida, ya'ni ilk temir davrda ibtidoi jamoa tuzimi o'zining so'nggi bosqichni o'tib, uning o'rniga sinfiy jamiyat yuzaga kelganligi nazarda tutilsa, unda professional qo'shiqchilik san'atining ilk asoslari bundan ikki yarim ming yil

avval shakllana boshlagan deyish mumkin. O'zbekiston tarixidagi barcha davrlarda qo'shiqchilik san'atida kishilarni Vatanga sadoqatli, komil insonlar qilib tarbiyalashga masalalariga kata e'tibor berilgan.

Xalqimizning eng yaxshi ko'rgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak to'y qo'shiqlari yor-yor, terma, lapar, o'lanlarida xalqning turmushi, tirikchiligi, ko'nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod xurramligi kelajakka ishonchi ifodalangan, zo'ravonlar, erkinsizlik, adolatsizlikka qarshi ko'pchilikning qudratli ovozi eshtilib turadi. Qo'shiqlarning mazmuni voqealikning lirik g'avosini badiiy o'zlashtirib, ya'ni yuz bergan xodisa, faktlarga munosabat, his-tuyg'u va kayfiyat orqali ifodalanadi.

Qo'shiq-san'atning oliy turi bo'lgan she'riyatning qadimiy va keng tarqalgan turidir.

Qo'shiq so'zini X1 asarning tilshunos olimi, filolog Maxmud Qashg'oriyning mashxur asari "Devonu lug'atit turk" asarida ham uchratamiz. U qo'shiq-qobug' so'zini arabcha "sh'er", "qasida", "rajaz" deb tarjima qilgan va misol keltirgan.

Turkan qatun qutina
Tergo'r mendin qoshig',
Ajg'il siznin tabug'chi,
O'tnur jani tabug' (1)

(Malika (shoh) xotinga mendan maqtov, qasida (qo'shiq) yetkur va xodimingiz yangi xizmat bilan yo'llanadi deb ayt).

O'zbek xalq qo'shiqlarining uzoq tarixini o'rganishda "Devonu lug'atit turk"ning uchala tomida tarqoq holdagi qo'shiqlar to'plab tekshirilsa bundan ming yil ilgari ham qo'shiqlarning rang-barangligini mehnat, mavsum marosim va ishq muhabbat temasidagi qo'shiqlarning keng tarqalganligi ularning til ibrolari, vazn, qofiyalari qo'shiq ekanligini ko'ramiz.

Maxmud Qashg'oriy tomonidan turk qabilalari orasida to'plangan

..............................................................................................

1.Maxmud Qashg'ariy "Devonu lug'atit turk", Toshkent, O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti. 1tom. 1960.

qo'shiqlar yordami bilan o'zbek yozma adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyot etishi uchun lozim bo'lgan adabiy zamining bir qismini qo'shiqlar tashkil etganini aytish mumkin. Devondagi to'rtliklarni bir nechasi xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan yozma adabiyot namunalari bo'lishi ham mumkin.

Qo'shiq so'zini yana bar mashhur qomusiy olim Yusuf Xos Xodjibning "Qutadg'u bilik" asarida ham uchratamiz:

Bu turkcha qo'shuqlar tuzatdim sene
O'qirda unitma, duvo qil mene (1).

Demak, qo'shiq so'zi bir zamonlar she'riyat ma'nosini anglatgan va xalq she'riyati shu termin bilan atalgan, umumlashma termin sifatida ishlatilgan.

Qo'shiqning bunday keng ma'nosi xalq o'rtasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, xalq shoir , dostonchilari doston aytganlarini bildirmoqchi bo'lsalar "qo'shiq aytdim" ham deydilar. Ammo qo'shiq terminini ko'p ishlatadilar. Demak, qo'shiq o'zbeklarda keng ma'noda bo'lib, she'riyatni ifoda etgan. San'atning xaqiqiy mazmuni inson va uning hayotini muayyan ijtimoiiy axloq normalari bilan belgilanadi, go'zallik esa his orqali kishiga zavq beradi. Demak san'at asarlarini yaratish ham kishining ruhiy dunyosiga, biliminng kengligiga, his tuyg'ularining sog'lomligiga, tasavvurining boyligi va tarangligiga bog'liq ekan. Mana shu sifatlarga ega bo'lgan inson dunyodagi ezguliklarning qadriga yetadigan, bir narsaga baho berganda ezgulik, go'zallik ideallariga qarab baho beradigan bo'lib qoladi.

Xalq va akademik kuylash elementlarini birlashtirish

O'zbek talabalarni yakkaxon kuylashga (ovozini qo'yishda) o'rgatishda muvaffaqiyat olish optimal yechim: xalq va akademik kuylash elementlarini birlashtirishdan iborat. Bu metodikasini qabul qilmaslik qiyin, zero bitiruvchilar o'zbek tilida dars olib boradi, o'zbek tili qator fonetik o'ziga xosliklarga ega. Ma'lumki, tilning kuylovchanligi, unlilar miqdori bilangina emas, balki ularning birikmalari bilan belgilanadi. U asosan tovushlar sifati

..........................................................................................

1. Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilik", Toshkent, O'zbekiston, Fan nashriyoti, 1971.

bilan belgilanadi. O'zbek tilida rus tilidagi kabi unlilarning uchta qatori mavjud:

- old qator - e,I;
- o'rta qator -a;
- orqa qator -o -u –o'.

Old qator unlilar ko'proq jarangli va kuylovchan. U tilda qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha yumshoq, yorqinroq. Barcha orqa qator unlilari tilning orqa qismini yumshoq tanglayga ko'tarib hosil qilinadi. Ko'pincha bu unlilar til orqa "q" va "q" undoshlari bilan birikadi; bu tovush davomiyligini qisqartiradi. Shuningdek, rus tilidagidan farqli o'laroq i, u, o' unlilari jarangsiz undoshlar bilan birikkanda go'yo reduktsiyalanadi. Masalan, "kichik" yozilsa-da, "kchik" aytiladi. Bu hollarda "i" yanada orqaga suriladi. Kuylaganda so'z oxiridagi "i" "i" yoki "e" tarzida jaranglaydi. Bu tovushlarni kuylashga ta'sir etadi.

(Xalq) xonandasi nafas tayanchiga ega bo'lmasa, qattiq havo oqimini talab qiladigan unlini tutib turish uchun, u unlini osonrog'iga almashtiradi yo bir yo'la tushirib qoldiradi. Rabotnov tadqiqotlarida ko'rsatishiga, har bir unli ma'lum bosimni talab qiladi. O'rtacha:

a - 10 m/m.
e - 12 m/m.
o - 11 m/m.
i - 13,6 m/m.
u - 12,5 m/m.

Unutmaslik kerakki, o'zbek va rus tillaridagi formal bir xil unlilar aslida turfa xil. O'zbekcha "a" ruschasidan kengroq qolaversa, ma'lum fonetik holatlarda orqa qatorga o'tadi. Shuningdek, "o", "u", "o'", "e" unlilari o'zlashtirishlarga uchraydi.

Rabotnov fikricha, ovozning eng ko'p tarangligi "e" unlisida tutib turiladi. U boshqalaridan ko'proq havo yo'qotmay kuylanadi. qiyoslash ko'rsatadiki, "e" ruscha matnda 30, o'zbekchasida 20 marta uchraydi.

O'zbek tili fonetikasining qisqacha tahlili ham uning rus tili bilan tafovutlarini ko'rsatib berdi. Unlilar xususiyatlari. unli va undoshlar almashishi imkoniyatlarini hisobga olish vokal pedagogikada juda muqim.

To'g'ri vokal jarangini shakllantirish o'zbek tilining o'ziga xosliklarini bilishni talab etadi.O'zbek xalq qo'shiqchiligi xususiyatlari, fonetik xususiyatlar, lad -ton sozlanish, ritmik xususiyatlar, bir ovozli idrok va tafakkur yakkaxon kuylash sinfida o'zbek talabalarini akademik kuylash ko'nikmalari, o'z ovoziga maksimal egalik qilish malakasi bilan qurollantirishni qiyinlashtiradi.

Ovozni quyish metodikasi bu predmetning umum tomonidan qabul qilingan hamda xususiy (spetsifik) metodik elementlarini birlashtirishi lozim. Metodikasining o'ziga xosligi shundaki, talabalarni milliy kuylashning zararli qirralarini xolos etish, biroq uning milliy sifati va koloritini saqlashdan iborat. Dastlabki mashg'ulotlarda talabning xalq qo'shiqchiligi qayin uslubga moyilligi aniqlanadi. Bu ta'lim bosqichlarini to'g'ri tashkil etishga ko'maklashadiki, bular birinchi darslardanoq bo'g'iz kuchlanishlni oladi, xonandalik esnashni tashkil qiladi va bosh rezonatorlarga yo'l ochadi. Bular bir yoqlama usullar. Bularga xonandalik nafas olish, nafas apparatini ya'ni nafas olish usulini tushuntirish kiradi.

Xonandalik nafas olishi va uning ahamiyatini tus[illegible] ishkomi usulida kuylovchilar qaqikoya qilinadi. Bu pastki qovurg'a - diafragmatik nafas ustida ishlashni tushunishni osonlashtiradi. Zero ishkomi usulida qoringa nafas olinadi.Xonandalik nafas ustida ishlash bilan parallel ravishda ovoz ustida ish boshlanadi. Mashqlar tanlashda siqiqlik va tomoqtish hisobga olinadi. Amaliy ko'rsatadiki, "o" va "u" unlilarni fonlash foydali bo'ladi.

Xonandalik esnashda kuylash usuli ham bo'g'izini bo'shatish, tanglay pardasini ko'tarish va tovushning yuqori rezonatorlarga o'tishga ko'maklashadi. Tomoqlashga qirish kurashning samarali metodlarini izlash unlilarini lab undoshlari bilan birikmada kuylashning foydasi qaqida xulosaga olib keldi: Ba, Bo,Bi, Be, Mu,Mo va sh .k. Uzoqlashgan xatto "a" ni aytishda til ildizi ko'tariladigan so'zga moyillik o'zbek fonetikasi xususiyatidir. Shu bois

ko'rsatilgan unlilar va ularning lab undoshlari bilan birikmalarini fonlash so'zni ancha yaqinlashtiradi,talaffuz apparatini faollash turadi.

Talaba tushuntirish va qator urinishlardan keyin tomoqlamay, xonanda esnashida kuylashga o'rgangach, buni bir qator mashqulotlar bilan mustahkamlanadi,ya'ni mashqlar takrorlanadi. Ko'pincha o'rtoqlari darsini tinglash bilan mustahkamlanadi. Bu o'z xatolarini yaxshiroq tushunish, vokal eshitish va tafakkurni rivojlantirishga yordam bo'ladi., pedagog ish metodikasi asoslarini o'rgatadi. Xalq uslubidan akademik kuylashga o'tish metodlari har bir talabaning ovoz imkoniyatlaridan ham kelib chiqadi. Kichik diapazon, o'rta registr va ovoz kuchidan mashqlar qo'llaniladi.

Yakkaxon kuylash sinfi pedagoglari unlilarni kuylash mashqlarida xalq yo'lida kuylashga xos bo'lgan bir notada unlilar o'zgarishga e'tibor qaratish lozim. Talabaning emotsional kayfiyatini tomoqlashni engishida muhim o'rin tutadi. Assosiativ aloqalar yaxshi yordam beradi. Masalan, yoqimli xayratlanish holati. Yakkaxon kuylash darsida talaba darsida talaba xotirjam bo'lishi, tekis nafas olishi muhim. Buning uchun muvaffaqiyatli kuylash, yaxshi olingan nota, dumaloq tovushni rag'batlash foydali. Darsning muvaffaqiyatli momentlarini doimiy qayd etish vokal eshitishni tarbiyalash uchun muhim.

O'zbek xalq kuylash uchun bir ovozlilik xos. Jamoa bo'lib kuylash turlari mavjud, biroq ular u inson xarakteriga ega. Shu sababli garmonik idrok va toifalar qiyinlashgan. Dastlabki mashqlarda garmonik qo'llash ko'pincha asosiy ohang ketma-ketligi qayta yaratishni qiyinlashtiradi. Bu hollarda idrok va qayta yaratishda mashqni to'rsiz kuylash, keyin uni cholg'u to'rligida qaytarish foydali.

Xalq kuylashi intonasion beqaror, templanmagan qulari jo'rligida bo'gani bois sof intonatsiyalashni tarbiyalash bir muncha qiyin.1954 yilda xalq cholg'ulari rekonstruksiyalangan, biroq hali ham ayrim joylarda temperlanmagan qatoli cholg'ular uchrab turadi. sof intonatsiyalash ko'nikmasini tarbiyalash yarim ton va tonlar bo'yicha kuylashni mashq qilishni talab etadi.Vokal vazifalari ijodiy realizatsiyalash va vokal ko'nikmalarini mustahkamlash - vokalsizlarni fortepiano jo'rligida kuylash. Darhol Abt, Zeyler vokalsizlarini kuylashga kirishish talabani xor qilib qo'yadi. Bunda uning

diqqatini g'ayriodatiy jo'rlik lad - tanor sozlanish, melodika, ritm band etadi. Bunda barcha vokal vazifakor vokalsiz eshitish idrokida o'rnashgunicha unutiladi. Shu sababli xalq melodikasiga, ritm, ladiga asoslangan o'quv - pedagogik vokal vazifalar majburiy singdirilgan vokalizlar yaratish zarur.Asosiy pedagogik vazifa - tomoqdakuylashdan akademik kuylashga qayta qurishdan kelib chiqib savol tuqiladi: ta'lim boshlanishida qanday vokal asarlarni repertuarga kiritish mumkinq.

O'zbek qo'shiqlari, zamonaviy, o'zbek bastakorlarining yengil romanslar, bolalar qo'shiqlarini kuylash vokal va ijro ko'nikmalarini mustahkamlashga ko'maklashadi. Dastlabki bosqichda repertuarga stillangan o'zbek xalq qo'shiqlarini kiritmaslik kerak. Bu qo'shiqlar uchun tomoqda baland kuylash,juda katta interval sakrashlar, katta diapazon xos.Maktab repertuarlarini, umumiy metodikaga muvofiq, kuylashda falset, baland kuylovchilik pozitsiyasida kuylash ishlanadi. Ovoz to'qimalarini birlashtirib falset kuylash, ayniqsa o'zbek qizlarga, akademik kuylash ko'nikmalarini mustakamlashda ko'maklashadi va maktab amaliyotida muvoffaqiyatli vokal ishi uchun zamin hozirlaydi, javoban dumaloq yuqori kuylovchilik pozitsiyasidan, kuchlanishsiz kuylashga ko'maklashadi.

Cholg'u jo'rligimiz kuylash ko'nikmalarini tarbiyalashning foydali va ahamiyatini ko'plab mutaxassislar asoslab berilgan. Shu bilan birga jo'rsiz kuylashni ta'limning bu bosqichida su'istemol qilmaslik lozimligi ta'kidlangan, toki ovoz malakalari rivojlanmagan va mustahkam tovush balandlik tasavvuri yaratilmagan, vokal eshitish rivojlanmagan.Ko'plab talabalar ovoz imkoniyatlari cheklanganligi, tomoqda kuylashdan akademik uslubga o'tish qiyinligi,sirg'aluvchi intonatsiya olishni hisobga olib jo'rsiz kuylash ishiga ehtiyotkorona yondoshmoq kerak.

Birinchi semestr mutlaqo tomoqlashni yengish, fartepiano jo'rligida kuylashga odatlanishga qaratiladi. Ikkinchi semestrda izchillik metodiga amal qilib jo'rsiz kuylashga kirishiladi. Masalan kuplet shaklidagikichik qo'shiq. 1 – ko'plet jo'rlikda, 2-si jo'rsiz kuylanadi.

O'zi jo'rligida kuylash - musiqa o'qituvchisini tayyorlashda eng muhim jihatlardan biri. hozirda forepiano bo'lmog'i maktabni topish mushkul.

biroq so'rovlar maktablarda xalq cholg'ulari jo'rligida musiqa darslari olib borilishi ma'lum bo'ldi. Shu bois solo kuylash sinfida talaba chala oladigan xalq cholg'usi jo'rligida kuylash mashg'ulotlari olib boriladi.Bu kabi kuylashda talaba osongina tomoqda kuylashga o'tib qoladi. Shu sababli barcha asarlar avval pedagog rarbarligida fortepiano jo'rligida kuylanadi.

Vokal - professional jarang yaxshi badiiy saviyaga yetgach, jo'rsiz va xalq cholg'usi jo'rligida kuylashga kirishiladi.

## Vokal mashqlari

Hamma vaqtlarda vokal maktablari pedagogika amaliyotida turli mashqlar zarur xonandalik ko'nikmalarini tarbiyalash, xonandalik mahorati elementlarini egallash uchun materialdan foydalanilgan.

Ovozni "boshqariladigan" qilish, uni, itoatkor asbobga, aylantirish uchun ovoz hosil qilish apparati barcha qismlari koordinasiyasi ustida sistemasi mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Bu ishni sodda musiqiy frazalar, murakkab bo'lmagan o'quvchi e'tiborini tovush shakllanishining asosiy momentlariga qaratishga ko'maklashadigan parchalarda bajarish eng oson.

Vokal pedagogikada mashqlarni saralash va to'g'ri qo'lash muhim aqamiyat kasb etadi, har bir mashq ma'lum yo'nalganlikka ega bo'lishi kerak. Ta'limning boshlang'ich bosqichida bunday mashqlar tor cheklangan vazifalarga ega bo'ladi, tovushni to'g'ri shakllantirish, vokal texnikasining turli ko'rinishlarini rivojlantirish, ya'ni ovozni qo'yish deyiladi.

Yangi talabalarni tanishtirayotgan, har bir pedagog "qaysi mashqlardan boshlash kerakq" degan savol ustida o'ylanadi. Hamma vaqt ham birdan javob berib bo'lmaydi. Ko'pincha bu boshlovchi xonandaga qaysi mashqlarni qay ketma-ketlikda berish kerakligini belgilash uchun o'qituvchidan katta kuzatuvchanlik va vaqt talab etiladi.

Talabalarning ko'pchiligi uchun ohista, biroq uning mashqlaridan boshlash qulay. Alohida hollarda ular mushak siqishi, tomoq bo'g'iqligi hissini keltirib chiqaradi. Birinchi holatda ohangning ohista, bosqichli harakatlari , ikkinchisida - tez, stakatolangan harakatlar foydali bo'ladi. Bu davrda legato va ton legato kuylash usullarini variasiyalash taklif etiladi.

Mashqlar ustidagi ishlardanoq xonandalarda tovush shakllantirish, kuylovchilik ko'nikmalarini egallash va fiksasiyalashga ongli munosabatni tarbiyalash zarur. Nafaqat pedagog, balki talaba ham u -yoki, bu mashq nima uchun berilgani, qo'yilgan vokal - texnik maqsadga yo'naltirilgan. O'zlashtirilishi qiyin va diapazon zo'raki kengaytirish tufayli jarang keskinligini keltirib chiqaradigan mashqlar nafaqat foyda bermaydi, hatto tuzatib bo'lmas zarar yetkazishi mumkin. Har bir talaba ovoz tipidan qat'i nazar o'z ovoz apparati qurilishi xususiyatlariga ega. Shu sababli unga eng yaxshi natijalarga erishishda ko'maklashadigan mashqlarni tanlash lozim. Mashqlar ustida ishlash jarayonida ikki jihat muhim: 1) xirgoyi, ya'ni ovoz apparatini "qizdirish", 2)ma'lum kuylovchilik usullarini ishlash.

Birinchi bosqich - xirgoyi, mushaklar sistemasini kuylovchi tayyorlash qolatga keltirish uchun ba'zan ikki-uchta qulay mashq yetarli bo'ladi. Ikkinchi bosqich uzoqroq, tovush sifatini shakllantirish texnikasi, kuylovchilik, eshitish, musiqiy ko'nikmalar elementlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Xirgoyi choqida pedagog haddan ziyod qat'iyanli, jarang sifatiga talabchan bo'lmasligi kerak. Ovozning "qizishi" sari talaba oldida to'la – to'kis ma'lum vazifalar qo'yiladi, ular o'ylangan va shu bosqichda erishish mumkin bo'lishi kerak. Bunda maqsadga sabr erishi kerak bo'ladi.

Mashqlarning to'g'ri tanlanishi, maqsadning anglashilganligi xonanda ovozi muvaffaqiyatli rivojlanishga ko'maklashadi. Ovoz apparati yaxlit bir butunlik sifatida ishlashini unutmaslik kerak. Izolyasiyalangan momentlarga bilan shartli, zero har qanday mashq barcha vokal texnik va musiqiy - badiiy vazifalar bajarilishi talab qiladi.

Har bir mashqni intonasion sof, tekis, xonandalik nafasida, erkin dumaloqlangan tovush bilan kuylanadi. Gavda qo'yilishi chiroyli, artistlik bo'lishi lozim. Unlilar (aniq va bir tembrlilik) va undoshlar ( aniq, umumiy kuylovchilik ustanovkasini buzmay) to'g'ri talaffuz ham majburiy, talab saqlanadi. Artikulyasiya, pastki jag' holati, yuz mimikasi, ko'zlar ifodasi tabiiy bo'lishi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mashqlarni ijro etish kuylashning barcha momentlariga e'tibor berishni talab qiladi, biroq barcha vazifalarni bir paytda

bajarishga intilib, talaba o'zini yo'qotib qo'yishi mumkin, shuning uchun uning e'tiborini avvalo, asosiy, eng jiddiysiga qaratish lozim.

Kuylovchilik ko'nikmalarini shakllantirishda ovozning eng yaxshi temral xusuiyatlari rivojlanishdan kelib chiqish kerak. To'g'ri tovush shakllantirish mezoni kuylashning "qulayligi", ovoz qosil qilish apparati erkinligi hissi, tovushni "cho'zish"imkoni, butun diapazon bo'yicha jarang bir tembrdaligi sanaladi. Bu ko'nikmalar dastlab ovoz markazida (oktava yo desima doirasida) ishlanadi, keyinroq diapazon asta sekin kengaytiriladi, mos ravishda pedagogik talablar ham murakabligidan mashqlarni fikrini tanlab, o'z ovoz jaranggiga diqqat bilan quloq solib, uning sifatini tahlil qilib, eng yaxshi tovushga hamroq hislarini eslab qolib kuylash kerak.

Mashg'ulotlar boshidanoq talabalar bilan tobora chiroyli ton va tovora kuylovchi jaranglaydigan unlilini aniqlash zarur. Bu uning kuylashda ijobiy natijaga erishilsa, mashqni boshqa unlilarga takrorlash, bunda dastlabki xonandalik pozisiyasini saqlashga intilish lozim.

Ta'kidlaymizki, mashqlar, odatda "a" tovushga kuylanadi - u asosiy sanaladi. Keyinroq barcha unlilar jarangini ishlash kerak bo'ladi.

Ko'plab xonanadarga diapazon markazidan "a" va "i" (ayniqsa, jarangsiz "a" bo'lsa) kuylashni boshlash juda qulay va foydali, biroq bu unlilarni kuylashga haddan ziyod berilishi, ayni diapazoning yuqori qismida, ovozning tor, keskin jaranglashi, mushak siqilishiga (ayniqsa, ayol ovozida) olib kelishi mumkin.

Boshqa unliga o'tish lablar, til artikulyasiyasini juda tez va kam sezilarli almashtirish bilan amalga oshiriladi. Esnashni sezish hissi bo'g'izni mushak siqilishidan xolos etishga ko'maklashadi. Tomoq erkin, siqilmagan bo'lishi kerak. Esnashni sezish usuliga kuylashdan oldin bir necha marta og'izni ochmay esnash (muloyim esnash) bilan o'rganish mumkin: og'izda bo'sh joy -qattiq tanlay vat til o'rtasida bo'shliq sezgisi yuzaga keladi.

Kuylovchilik ko'nikmalarini ovoz markazida, na past va na baland tonlarsiz, erkin va qulay jaranglovchi tonlar doirasidan chiqmay o'zlashtirish zarurligiga yana bir e'tiborni qaratamiz. Bu davrda diapazonning chekka

tovushlari, ayniqori registr tovushlari ustida ishlash ovozni buzadi, baqiroqlik, trimolyasiya, jarang kuchlanishiga olib keladi.

Barcha ovozlarga dastlab pasayib boruvchi ohangni, mashqlarni o'rta registr tovushlarida kuylash tavsiya qilinadi. Noqulaylik, ovoz apparati siqiqligi sezilsa, tonllikni o'zgartirish, bu ko'ngilsiz sezgilarni bartaraf etmasa, mashqni qulayrog'iga almashtirish kerak.

Demak, nafaqat mashqlarni tanlash, balki ularning tonalligini talabalarning individual xususiyatlariga mos kelishi lozim. Baland ovozlar uchun yozilgan mashqlar o'rta va past ovozlarga tegishli tonalikka, odatda tersiyaga past transpozisiyalanadi.

Vokal mashqlar birinchi galda ma'lum texnik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, biroq kuylash musiqa bo'lgani sababli har bir mashq nafaqat texnik jihatdan to'g'ri, balki musiqiy, musiqa asari parchasidek bo'lishi kerak.

Vokalizni o'rganish jarayonida fortepiono jo'rligi muhim rol o'ynaydi, xususan mashqlar ifodali garmonizasiyani nafaqat eshitish, balki musiqiy didni tarbiyalaydi va ma'lum ma'noda tovush sifatiga ta'sir qiladi, uni yangi obetonlar bilan boyitadi va hatto ovoz jarangini faolashtiradi. Bundan kelib chiqib to'plamga tobora murakkab garmonizasiyali mashqlar kiritiladi.

Vokal partiyasini cholg'u chalish kerakmi yoki garmonik qo'llab-quvvatlash yetarlimiq Bu xususida fikrlar turilicha. Har bir pedagog har bir aniq vaziyatda metodik tartibdagi fikrlardan kelib chiqib, o'zi to'g'ri deb bilganidek yo'l tutadi.

Tez va sekin templarni birlashtirish jarang tekisligiga erishishda ko'maklashadi. Tez tempda ovoz go'yo o'z nuqsonlarini aniqlab ulguradi (ko'plab pedagoglar fikricha). Tez sur'atdagi mashqlar, ayniqsa, tovushni "silkitish", ya'ni uning haddan ziyod vibratsiyasi bilan kurashishi ayniqsa foydali. Bu o'rinda mushak inersiyasi qonuni, "mushak xotirasi" qonuni ishga tushadi. Tez sur'atda kuylangan mashq silliqroq jaranglaydi, shu zohati sekin takrorlanganda u tovush silliqligini saqlaydi.

Stakato va legato kuylashni almashtirish juda foydali. Stakkato tovush "yaqinligi", pozisiyaga ko'proq aniq tushish hissini beradi. Bundan

tashqari, stakkatoning turlarini legato bilan birlashtirilgan tovush tayanchini sezishga ko'maklashadi. Metodik tavsiyalarda "bosiq jarang" termini tez -tez uchraydi. U avvalo ovoz kuchining nafas olish holatiga saqlagan qolda pasayishini anglatadi va tovushning aniq boshlanishi, past, tabiiy, kuchlanishsiz jarangini ko'zda tutadi, bunda ijrochi intonasiya sofligini yaxshiroq nazorat qila oladi, ovozning tabiiy tembral xossalarini aniqlay oladi.

Xonandalik nafasi xususida ikki og'iz so'z ta'kidlash joizki, unga haddan ziyod e'tibor va ba'zida noto'g'ri tasavvur xonandalarga o'z ovozi, intonasiyasi jarang sifatini nazorat qilish, ijodiy momentlarga yetarli e'tibor qaratishga imkon bermaydi. Shu sababli boshlovchi xonandaga e'tiborini nafas jarayoniga ortiqcha jalb qilmaslikni tavsiya etgan bo'lardik, ayni paytda uni buzishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan: yelkalarni ko'tarish, qorinni chiqarish, nafasning ortiqcha harakatlari, ayniqsa ortiqcha havo olish, shuningdek, "nafassiz" kuylash - nafas tayanchisiz kuylash.

Nafas olish normal kechsa, avval aytilgandek, kuylovchining asosiy e'tiborini chiroyli, erkin jarangga qaratish, u doimo butun ovoz hosil qilish apparati to'g'ri ishlash bilan bog'liqligini yodda tutish lozim.

Xonadalik nafasiga oid amaliy maslahatlar quyidagicha:

Kuylashni boshlamay turib, o'quvchi gavdasi rostlangan, qorin tortilgan, ko'krak bir muncha ko'tarilgan, bel va yelkalar tekis bo'lishi kerak. Xonandaning umumiy kayfiyati butun organizmning to'liq mushak erkinligi holatda ijodiy faollik, ko'tarinki kayfiyatini ko'zda tutadi, go'yo kishi yoqimli qayratlangandek. Bunda xayolan aytilgan "Ax" da pastki qovurqalar kengayadi, ularni fanasiya oxirigacha tutib turish lozim.

Nafas olish yengil shovqinsiz (burun va sal ochilgan og'iz orqali). Nafas soniyasining ulushida go'yo tutib qolinadi, va shu "yashirin" nafasda kuylay boshlanadi . Nafasni juda tejab, nafas olish ustanovkasini saqlashga urinish kerak (xuddi havo olishda davom etayotgandek). Bu tovush tayanchini sezish imkonini beradi. Yanada chuqur nafas olish uchun o'quvchiga o'zi sevgan gul atirini sekin hidlashini tasavvur qilishni aytish lozim. Bu usul

ko'plab taniqli pedagog vokalchilar amaliyo-tidan o'rin olgan. Xonandalik nafasini asta-sekin rivojlantirish va mustahkamlash kerak.

Yana bir muhim ko'nikma tovushni atakalash fikriga, eng yaxshisi yumshoq, lekin aniq ataka , ya'ni tovush siltashsiz va nafas olishsiz, ovoz paychalariga qat'iy zarbasiz tug'iladigan kuylashning boshlanishidir. Bu silliq ovoz hosil qilish, tobora chiroyli ovoz tembrini ta'minlaydi, to'qimalarni toliqishdan saqlaydi.

To'g'ri, ayrim xollarda, masalan un paychalari bo'shang bo'lsa, qattiq faol ataka qo'llaniladi. Ifodalilik vositasi sifatida va metodik maqsadlarda ba'zan nafas olib atakalashdan foydalaniladi.Jarang boshlanishi kabi uning oxiri ham e'tibor talab qiladi. Tajribasiz xonandalar nafasni taqsimlay olmagani uchun frazalar oxiri natinch, beqaror jaranglaydi, jarangni "olish" to'xtatish aniqligi yo'q.

Vokal mashqlar xonandani badiiy asarini ijro etishga tayyorlaydi, ularda vokal mahorati elementlari ishlanadi. shunday elementlardan biri ritmik uyushqoqlik. Bir xil ulushlar cho'zishning aniq va bir maromidaligi, pauzalarga rioya etish ma'lum saboqni talab qiladi.

Ritmik aniqlikka qat'iylik bilan erishish lozim. Odatda, kuylash oldidan, mashq berilgan tempda va barcha uzoqliklarga qat'iy rioya qilib, modulyasion sekvensiya bo'g'inlari o'rtasida pauzalarni aniq tutib chalinadi. Ta'limning birinchi qadamlaridanoq ritm hissini rivojlantirish - zarur ko'nikmalarni tarbiyalash tizimida juda muhim jihatdir.

Oldinda turgan vazifalarni o'zlashtirish uchun mashg'ulot boshlanishdagi kayfiyat, xonandaning kuylashga tayyorligi va ijodiy qolatga kira olishi katta ahamiyat kasb etadi. Faol bo'lmagan tonusi past o'quvchi yuqori natijaga erisha olmaydi.

Diqqatni jamlash, pedagog ko'rsatmalarini fiksasiyalash, ijodiy ko'tarinkilik birinchi galda talabaning o'ziga bog'liq, bunda uning qobiliyati, professional sifatlari namoyon bo'ladi. Zarur psixologik sozlanishda pedagogning rolini kamsitib bo'lmaydi. uning zarur ijodiy muloqat o'rnata olish qobiliyati o'z emosional zaryadi ko'p holda talaba kayfiyatini belgilab beradi.

## Ochiq tovush

Ochiq tovush "Oq rang"ga ega, keskin va silliq jaranglaydi, pozisiyasi past, diapazonda cheklangan va bir xil jaranglaydi. Ochiq tovush bilan kuylanganda, asosan, ko'krak rezonatori ishlatiladi.

## Yopiq tovush

Yopiq tovush "qora rangga" ega, yumshoq, dumaloq jaranglaydi, bosh va ko'krak rezonatorlari ishlaydi. Pozitsiyasi yuqori, tovush nozik, parvozli, sur'ati chiroyli.

## Kantilena

Kantilena - kuylash asosini tashkil etuvchi uzluksiz qo'yiladigan tovush. U har bir keyingi tovush oldingisining davomi bo'lib, undan go'yo "quyilganda" hosil bo'ladi, kuylashning bu uslubi bog'lanishli yoki legato kuylash deyiladi.

## Vibrato

Vibrato - ma'lum tonning balandligi, kuchi va tembrning davriy o'zgarishi.

## Og'izni yopib kuylash.

"M" sonor tovushga og'izni yopib kuylash birlashgan lablar bir muncha tushirilgan pastki jag yordamida kichik esnash tuyg'usi bilan amalga oshiriladi. U bosh jarangga sozlaydi, biroq to'g'ri rezonator hislari yuzaga kelgandagina, aniqrog'i, xonanda burun to'qimalari vibrasiyasini yaxshi sezgandagina yordam beradi. Yopiq og'iz bilan kuylashni xirgoyi boshlanishida qo'llash tavsiya qilinadi.

## **Jo'rsiz kuylash**

Cholg'u asbobi jo'rligisiz kuylash, kuylashga o'rganishda muhim maxsus ko'nikmalardan biri.Eshitish kuylashda hal qiluvchi omil sanaladi.

Jo'rsiz kuylash ichki eshitishni rivojlantirishda muhim va zarur, zero kuylovchi e'tibori musiqa fezonator va sh .k. sezgichlarga jamlangan.

Mustaqillik va o'z – o'zini nazorat boshqalarning yordamida qayta yaratilgan tovushni baholash kuchayadi.

Amaliyot ko'rsatadiki, jo'rsiz kuylashda ovozning tabiiy tembri yaxshiroq namoyon bo'ladi, u yanada tekis jaranglaydi, ya'ni bo'yoqlar kasb etadi. Jo'rsiz kuylaganda ovozdagi qo'shimcha tovush kamayadi, agar u kasallik emas, balki ovoz to'qimalari kuchsiz funksiyasi bilan bog'liq bo'lsa.

Jo'rsiz kuylashga o'rgatish intonasiyalash qonuniyatlarini ongli qo'llash, berilgan tonallikda qolishi barqaror ko'nikmalarni egallashga asoslanishi lozim, tovushni forsirovkalashdan qutulishga ko'maklashadi.

A,capella kuylash ko'nikmalarini shakllantirayotib, ta'limning boshlanqich bosqichda ovoz apparati ishi uchun quylay sharoit yaratish uchun soddaroq metrotipik rasmli, diapazon cheklangan (oktavadan emas), tesiturali asarlar tanlash lozim, u kuylovchi ovoz jarangi primar zonasiga yaqin bo'lsin.

Tovushning kerakli balandligini izlash, jarang nyuanslari, to'g'ri intonatsiya, uning saqlanishi (qo'shiq kuylashni barqaror qayta yaratish) emasional kayfiyat, ijro faollik darajasi (tonus)ga bog'liq.

Yaxshi o'zlashtirgan, to'laqonli, ifodali vokal jarang va barqaror intonasiya jo'rsiz murakkab bo'lmagan, ovozni yetarlicha egallashni talab qilmaydigan ( testura, ohang harakati, tovush dinamikasi, ma'no va badiiy -musiqiy vazifalariga ko'ra) materialni kuylaganda intonasion vazifalarni bajarish imkonini beradi.

## Yuqori pozitsiya

Tovushning baland pozitsiyasi. Aynan "boshni" sezish kuylashga yuqori pozitsiya baxshi parvoz etadi.Italiyalik ustalar "ovoz jarangini boshga ko'chira oladiganlar, haqiqatan kuylaydi" deydilar.

Yuqori pozitsiyani ishlash uchun asosiy vazifa ovozning butun riapazonida bosh rezonatorlar harakatini saqlash ekanini yodda tutish lozim. Bunga ovoz apparatida ma'lum texnik sharoitlarni yaratish ko'maklashadi:

1.Chuqur elastik nafas olish.

2.Yetarlicha ochiq bo'g'iz, talaffuz erkinligi va to'siqlar havo - tovush oqimini ta'minlaydi, tanglay pardasini ko'tarish va erkin pastki jag' hisobiga erishiladi.

3.Yopiq butun diapazonda dumaloq tovush

4.Tovushni yumshoq atakalash.

5.Undosh va unlilarni yopiq shakllantirish.

6.Xonandaning umumiy tonusi.

# BADIIY VA METODIK QISM
## (Vokal asarlari va mashqlariga annotatsiyalar, ularni ijro etish yuzasidan metodik tavsiyalar)

### Kuylashni boshlash (Xirgoyi)

Bosh va gavdaning asosiy holatlari: kuylash chog'ida gavdaning to'g'ri, tabiiy, erkin bir muncha yoyilgan, qo'llar bo'sh qo'yiladi. Boshni to'g'ri, erkin tutish, pastga tushirmay va baland ko'tarmaslik kerak, yuz va bo'yin mushaklari kuchlanmasligi, oldinga qarab turish lozim.

Dastlabki mashg'ulotlar uchun sodda, xonandaga tovush hosil qilish jarayonida diqqatni jalb qilish imkonini beradigan mashqlarni tanlash lozim.

Oldinda turgan ijroga ichki tayyorgarlik bilan bir qatorda yaxshi xirgoyi, ya'ni mushak tizimini ishchi holatga keltirish zarur. Xonanda xirgoyisi sportchining chigayozdi mashqlari yoki balerinaning "qizib olishi"kabi.

To'g'ri xirgoyi - keyingi kuylovchilik topshiriqini muvaffaqiyatli bajarilishi. Amalda o'z ishini hurmat qilgan har bir xonanda har kuni xirgoyi qilishni majburiy biladi, toki to'liq asarlarni kuylash chiroyli bo'lsin. Xirgoyi uchun mashqlar vokalizlar yoki ovoz funktsiyasini yaxshi sozlovchi muvaffaqiyatli asarlar sanalanadi. Bu xonandaning didi, odati va tayyorgarligi darajasiga bog'liq.

Xonanda yaxshi mashq qilgan bo'lsa, xirgoyi kam vaqt egallashi mumkin. Katta tanaffuslardan so'ng xirgoyi ko'proq vaqt egallaydi. Tajribali professionalning nerv sistemasi funksional imkoniyatlari yuqori va shuning uchun ishga kirish davri minimal. ayrim professionallar xirgoyi qilmasdan ham sahnaga chiqa oladilar. Biroq har bir xonanda hamisha o'z ovozini "sinash", ya'ni uni ishchi "tayyor" holatga keltirishga intiladi. Bu murakkab asarlarni birdan kuylash kerak paytda ayniqsa zarur. Yaxshi ma'lumki, faqat xirgoyi qilib olgach, tobora murakkab ijro vazifalarini bajarish mumkin.

Vokal funksiyada xirgoyi harakati ikki yoqlama xarakterga ega. Bir tomondan, xirgoyi natijasida (inertnost) juftlik bartaraf etiladi va nerv jarayonlarining zarur faolligiga erishiladi. Boshqa tomondan, xirgoyi xarakteri,

mashqlar sur'ati xonanda o'z oldiga qo'ygan vazifalar va tegishli nerv koordinatsion mexanizmlarni ishga tushiradi, mashqlar tempi, ijro ritmi, dinamik, xarakteri - kerakli stereotiplarini ishga kiritadi va keyingi kuylashga ta'sir etadi.Masalan, E. Karuzo lirik partiyalarni kuylagan yorqin, yengil jarang, qarakatchanlikni talab etgan mashq va vokalizlarni xirgoyi qilsa, dramatik partiyalar ijrosidan oldin xirgoyi mashqlar xarakteri mos ravishda o'zgargan. ular keng jarangli, to'qroq, massivroq tovush bilan kuylangan.

Amaliyotchilar ta'kidlaganki, xirgoyi xarakterli ayniqsa keyingi kuylash uchun maqbul. Xarakterga ko'ra xirgoyi xonandani tegishli asarlar ijrosiga tayyorlashi lozim. Shunday qilib, xirgoyi ma'lum planda tovush va psixologik tayyorlikni yaratadi. Bundan doim foydalanish kerak. Bu xirgoyi xonanda

ijro etadigan asarlar xarakterida bo'lishi shart, degani emas. Uning koordinatsiya doirasi keng bo'lishi mumkin, zero xonanda hamma vaqt turli plandagi asarlarni kuylashga to'g'ri keladi.

Inertlik qissasi va keyingi ishga avvalgisining ta'siridan konsert dasturini tuzishga oid xulosalar qilinadi. Doimo asarlarning ketma-ket ijrosidagi sozlik (tayyorlik)ni hisobga olish lozim. Shu sababli, birinchidan, ovoz apparati ishining bir xarakteridan boshqasiga tez o'ta olish lozim, bunga mashq qilganlik bilan erishiladi. ikkinchidan, konsertdan oldin dasturni estrada bajariladigan ketma-ketlikda xirgoyi qilish lozim.

## Darsning xirgoyi qismi.

Kuylashga o'rgatish metodikasida xirgoyi qismiga alohida katta e'tibor qaratiladi. Biroq ikki tushunchani farqlash lozim: xirgoyi- ovoz apparatini qizdirish, ya'ni organizmga umumiy ta'sir va xirgoyi ovoz kiritish texnikasini ishlash. Vokal pedagogikasi amaliyotida ba'zan shunday aralashtirish kuzatiladi. Uni sport bilan qiyoslasak, bu chigal yozdi va mashq ( mashqulot)ni qorishtirish, demak chigal -yozdi - sporti organizmni ishchi holatiga keltiradigan umumiy mashqlar, chigalyozdi oxirida mashqlarga, gimnastik kombinatsiya yoki mashg'ulotda bajariladigan boshqa harakat faoliyatiga tayyorlaydigan mashqlar beriladi. Mashqulot -yangi koordinatsiyalarni ishlash, mushak faoliyati oliy natijalarga erishishi.

Xonandalik ham shunday. Dastlabki mashqlar murakkab vazifalardan holi bo'ladi. Mashqlarning birinchi qismi turli o'rganuvchilar uchun tom ma'noda xirgoyi (ya'ni, chigalyozdi) bo'lishi kerak, keyin esa vokal texnik vazifalarni qo'yadigan xirgoyiga o'tiladi. Sifatli xonandalik ovozini shakllantirish, boshqa barcha asosiy vokal harakatlar: legato, stakkato, katta intervalga sakrash va sh .k., -odatda, mashqlarda ishlanadi. Ovoz silliqligi, unlilar silliqligi, to'liq diapazon rivoji, dinamikasi - bu hammasi avvalo maxsus - tanlangan mashqlar tizimi bilan ishlash samarasi.

Ovoz hosil qilish va ovoz yuritish texnikasi ustida ishlash - yangi harakat vokal stereotiplarini rivojlantirish va ularni saqlay va turli musiqiy vazifalarga ko'ra variatsiyalay olishdir. Harakatlarni aniq farqlash (differensatsiya), koordinatsiyani ishlash nerv jarayonlari inertligi bartaraf etilib, organizm "kuylash" holatiga yetganda muvaffaqiyatli kechadi.

U yoki bu differentsiyalashni ishlashda yuqori natijalarga faqat kuylash holatda erishi mumkin. Ko'pgina sinfda "Nega baland nota bugun chiqmayapti o'tgan darsda hammasi yaxshi edi-ku. Nimani noto'g'ri qildim" -degan savolga "Sen bugun kam xirgoyi qilding" yoki "kecha ovoz ustida ko'p ishlading, charchading, keragini qilyapsan, texnikang to'g'ri" degan pedagoglar javobi eshitiladi.

Fiziologiya nuqtai nazaridan buni shunday talqin qilinadi; bugun nerv tizimi yetarlicha faol holatda emas, maksimal qiyin vazifalarni bajara olmaydi. Yetarlicha faol emaslik yo nerv hujayralari inertligi ( kuylash holatida emasligi) yo oldingi haddan ziyod, uzoq va kuchli ta'sir oqibatida tormozlanganlikka (charchoqqa) bog'liq.

Mashg'ulotni tashkil etayotib, o'rganuvchiga xirgoyi uchun zarur vaqtni, texnikani takomillashtirish mashqlariga o'tish vaqtini hisobga olish muhim. Bu o'rinda metodik yondoshuv turlicha bo'ladi. O'rganuvchi ovoz apparatiga asta-sekin yuklama berish lozim bu vokal pedagogikasi alifbo haqiqati ekanini aytmasa ham bo'lar.

Mashg'ulot (dars) ning "xirgoyi"va "ishchi" qismlari orasidagi metodik tafavut shundan iboratki, xirgoyi qismida boshida odatiy, alohida e'tibor talab

qilmaydigan, doim to'g'ri bajariladigan, ya'ni yaxshi kuylangan mashqlar berilishi kerak.

Ovozning me'yordagi kuchi va diapazon markazida ishlash bu mashqlar to'g'ri, barqaror bajarilishi omilidir.Shunday qilib, ovoz apparatini "qizdirish" va nerv sistemasi faoliyatini oshirish odatiy, sodda mashqlar davomida kechadi. shu tariqa inertlikni yengish va yaxshi o'rnatilgan koordinatsiyani mustahkamlash uchun sharoit yaratiladi.

Xirgoyining bu birinchi bosqichda pedagog ko'p tanbeh bermasligi, haddan ziyod talabchan bo'lmasligi, jarangning oldin eshitilgan maksimal yaxshi sifatini ko'zlamasligi lozim. Inertlik tugalmas ekan, bu yaxshi sifatlar, "so'nggi muvoffaqiyatlar" namoyon bo'lmasligi mumkin.

O'rganuvchini shu jarangni izlashga qat'iy majburlash yetarlicha "kuylash" holatida bo'lmasa, topilgan koordinatsiyalar mustahkamlanishiga emas, balki qo'shimcha kuchlanish, har qanday qilib izlanayotgan tovushni topish istagiga olib keladi.

Jarangning eng yaxshi sifati o'z-o'zidan, izchil xirgoyi natijasida namoyon bo'lguncha tinch xirgoyi qilib, o'rganuvchini qizdirish ma'qul. Bu holatda avval topilgan ko'nikmalar hisobiga shu sifatida yuzaga keladi va ularning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Faqat ovozni "kuylash" holatiga yetishga ko'ra pedagog murakkabroq vokal vazifalari berishi va maksimal talabchanlik va qat'iyat ko'rsatish kerak. Ayniqsa murakkab farqlashlar, o'ta murakkab kombinatsiyalar (trel, fililllash va sh.k.), diapazonning o'ta baland, alohida safarbarlik talab etadigan tovushlarni mashg'ulotning ikkinchi yarmi, darsning kulminatsion fazasida berish lozim. Bu paytda to'liq kuylash holati kuzatiladi va hatto yengil charchoq ham sezilmaydi.

Shunday qilib, xonandaning xirgoyi ikki turli fazasidan iborat bo'lib, ularning o'ziga xosliklarini dars metodikasini qurishda hisobga olish kerak.

Xirgoyi mashqlari ketma-ketligi va xarakterini ko'p o'zgartirib borish kerak. aynan bir ketma - ketlikdagi mashqlar odat - ularni takrorlash stereotipiga olib keladiki, bu keyinchalik ulardan alohida foydalanishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, o'zaro bog'liq mashqlarga qul bo'lgan

xonanda xirgoyini mashqlarni odatiy ketma-ketlikda kuylashdan iborat xirgoyiga aylantiradi. Shuning uchun ularni variatsiyalash va xarakterini o'zgartirish ma'qul.

Xirgoyi mashqlari ma'lum ketma-ketligi faqat o'rgatishning dastlabki, ya'ni asosiy texnik ko'nikmalar o'zlashtiriladigan bosqichda maqsadga muvofiq bo'lish mumkin. Bu holda stereotiplash kecha o'zlashtirilganni mustahkamlashga, shuningdek talaba pedagog yo'qligida darsda qilganini yanada aniq takrorlashga yordamlashadi.

Ilg'or o'quvchi va yosh xonanda uchun xirgoyi mashqlarini doimo xilma-xillash kerak, toki istalgan paytda istalgan vokal topshiriqlarni badiiy asarlar talab qilganida bajarishga tayyor bo'lsin.

Ular mashq -xirgoyilariga murakkab yurishlar va asarlarning mashq tarzida yuqori va pastga yarim ton trarnspozitsiyalash kerak.

Boshlovchi va o'rtacha o'zlashtirgichlar, avval aytilgandek, o'qituvchisiz xirgoyi mashqlar kuylamasligi lozim, toki mo'ljallangan to'g'ri koordinatsiya noto'g'ri kuylash bilan buzilmasin.

Pedagog o'quvchisi ovoz apparati ishida sinfda foydalangan koordinatsiyadan mustaqil kuylashda foydalanishning ishonch hosil qilgandan keyingina yosh xonanda mustaqil xirgoyi qilish mumkin.

Ishlash (o'rganish) vaqti xonandalarda turlicha bo'ladi. Juda uzoq xirgoyi qilish kerak bo'lgan individuallar bor, ular qancha ko'p kuylasa, ovozi shunga jaranglashadi. Boshqalari aksincha sifatlarga ega.

Har bir xonanda o'z ovoz apparati xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagog shuningdek, har bir o'rganuvchining ishlash vaqtini hisobga olishi, darsning ratsional qurilishiga xizmat qiladi. Ishlagan vaqti va xirgoyi qilish darsdan darsga o'zgarib boradi. Bunga kun tartibi, vokal yuklama tartibi, organizmning umumiy tonus iva psixik kayfiyat kabilar sabab bo'ladi.

Mashq qilgan sari kirishish vaqti qisqarib boradi, bu kuylash holatiga tez kirish imkonini beradi. To'liq kuylash holati uchun o'rtacha 10-12 daqiqa yetarli bo'ladi.

## Kuylashni boshlash (Xirgoyi)

Dastlabki mashg'ulotlar uchun sodda, xonandaga tovush hosil qilish jarayonida diqqatni jalb qilish imkonini beradigan mashqlarni tanlash lozim.

### Mashq №1

Mashqlarni dastlab og'izini yopib kuylanadi, bu bosh rezonatsiyasi hissini beradi. Jarang tekisligi, bosiqligi, mashq oxirigacha yuqori ton pozisiyasini saqlash, nafasini tejamkor sarflashga asosiy e'tibor beriladi.

### Mashq №2-3

Bu mashqlar barcha ovozlar uchun foydali, ular boshlang'ich xirgoyi uchun qulay, asta-sekin kengayadigan tovush qatorida ovozni tekislashga ko'maklashadi i va ye unlilarga kuylash, ayrim hollarda mi va lya bo'g'inlari birligiga kuylashga tavsiya etiladi. Unutmaslik kerakki, erkin jaranglagan diapazondan chiqish mushak siqilishiga olib kelishi mumkin.

### Mashq №-4

Mashq baland ovozlarni kuylash uchun foydali. Notalarning tez sur'atda almashishiovoz apparatini siqiqilikdan xalos etadi. Mashq ijrosi aniqlik va ritmik tashkiliylikni talab etadi, bunga esa taktning har bir kuchli ulushini aksentlash hisobiga erishiladi. Istalgan qulay unli va turli bo'qinlarga kuylash mumkin.

### Mashq №5

Uch ovozlik ritmik aniq bo'lishi lozim. Uning barcha tonlari bir tembrda jaranglashi, nafas olish shovqinsiz, nafas chiqarishning bir maromda, tovush atakasi - yumshoq, lekin aniq bo'lishi kerak.

### Mashq №6

Mashq legato usuli, kantilena elementlarini egallash uchun foydali, shuningdek nafas rivojiga ko'maklashadi. Tejamkor va bir maromda nafas

chiqarishga e'tibor beriladi. Boshlanqich bosqichda nafas har ikki taktdan keyin yangilanish mumkin, keyinroq barcha mashqlarni bir nafasda kuylash maqsadga muvofiq.

**Mashq №7-8**

Mashq registrlarni silliqlash uchun foydali, u shuningdek, kantilena asoslarini shakllantirishga ko'maklashadi. asosiy vazifa -yuqori tonlar bir pozitsiyada jaranglash.

**Mashq №9**

Ushbu mashqda major uch ovozlikka katta sekunda intervali qo'shiladi. Uni yaxshi "anglab olish", ya'ni eshitish va qayta yaratish momentigacha uning jarangini tasavvur etish lozim.

**Mashq №10**

Mashq tegishli tonallikda, barcha tipdagi ovozlar uchun foydali. har bir yuqori ton tovushini ayniqsa aniq atalajagini talab qiladi, buning uchun uni aksentlanadi, har bir tovushning aniqligini tez sur'atda ishlash uchun uni avval sekin - solfedjiolab yoki turli bo'g'inlarga kuylash foydali.

**Mashq №11**

Pastga harakatlanayotgan tovush takrori bilan pozitsiya aniqligi qayd etiladi. (fiksasiyalanadi, mushak xotirasi qonuni). Stakkato va legato quylaganda yagona xonandalik holatini saqlash uchun o'z ovozi jarangiga diqqat bilan quloq solish lozim.

**Mashq №12**

Mashq mushak siquvidan hosil bo'lishga ko'maklashadi. Stakkato kuylashi har bir tonda ma'lum bo'g'inni takrorlash (do, do,do,do,do,do) bilan birlashgan tez temp kuylovchilar pozisiyasi barqarorligini fiksatsiyalaydi. So'nggi takt sekin tempda kuylanadi, bu ovoz jarangini "anglash" imkonini beradi. asosan past erkak ovozlar uchun tavsiya qilinadi.

## Mashq №13-14

Ikkita o'xshash mashq: birinchini legato, ikkinchisi stakkato usulida kuylanadi. Vazifa har bir holatda pauzadan keyin takrorlangan tovush aynan bir pozitsiyaga tushishdir.

## Mashq №15

Bu mashqda har bir yuqori tovush takrorlashda ayni bir kuylovchilik pozitsiyaga tushish kerak. Agar "mi"-"ma", "ze" -"zo" bo'g'inlari almashuvi noqulay bo'lsa, ularni ko'proq mos keladiganiga almashtirish mumkin. Undoshlar juda aniq va tez tallafuz qilinadi. Kvarta doirasida yuqoriga va pastga sekvension kuylanadi.

## Mashq №16

Bu mashqni ayol va erkak ovozlar legato va stakkato usulida kuylash mumkin. Bosiqlik bilan boshlash kerak, oldindan yuqori ton jaranggini ko'z oldiga keltiradi, unga yondoshish nafas uzatish faoligini talab qiladi. Pastga harakatda yuqori ton pozisiyasini saqlash zarur.

## Mashq №17-18

Mashq avvalgisining varinati sanaladi. Nisbatan kuchli ulush bir muncha dolzarblashadi. Yarim ton pastga o'tish aniqligiga katta e'tibor beriladi. Buning uchun yuqori pozisiyani saqlash, tovush esa yanada bosiq bo'lishi kerak.

## Mashq №19

Mashq pozitsion aniqlik tovush tayanchi hissiga o'rganib, mushak xotirasini rivojlantiradi. Yuqori va past tovushlarni stakkato usulida takrorlash ayni bir pozitsiyaga tushish aniqligini talab qiladi. Stakkato koloratur sopranolar uchun tez passajidagi stakkatodan "oqirroq" bo'lishi kerak taklif etilganidan baland tonallikda kuylash tavsiya etilmaydi.

## Mashq №20

Barcha ovoz turlari uchun mashq. Stakkato va legato kuylashni almashlash juda foydali, zero ovoz stakkatoda o'z kamchiliklarini aniqlab "ulgurmaydi" va pozitsion aniqroq jaranglaydi. Stakkatoda nafas tayanchi, uning ovoz apparati (bo'qiz) ishi bilan muvofiqlashuvi anqroq his etiladi, takrorlanganda bu hislarni fiksasiyalash lozim. Yengil ovozlar mashqni tez tempda, o'rta va past ovozlar bir muncha bosiq tempda kuylashi mumkin. Mashq ovozning o'rta registri dorirasida kuylashga mo'ljallangan.

## Registrlarni silliqlash

Ovozning butun diapazon bo'ylab tekis bir xarakterli jaranglashi - professional jarang belgilaridan biri hisoblanadi. Tajribasiz xonanadalarda turli registrlarda ovoz turlicha jaranglaydi. Registrlar almashishi paytida, u xuddi singandek xonandaga bo'ysunmaydi. Bu jarangning estetik meyo'rlarini buzadi.

Ovozni silliqlash uchun o'tish tonlarini sekinroq, boshqa tovush bilan kuylash kerak. Mashqni ko'proq yuqoridan pastga qo'rish, oxirigacha yuqori ton jarangini saqlash kerak. shu tufayli bosh va ko'krak registrlari kerakli almashuvi (aralashuvi) ro'y beradi, ovoz jaranggi silliqligiga erishiladi. "A" unlisini o'tish tonlarida "O"ga yaqinlashtirish kerak. Erkaklar "yuqorilarini yopishga" intilishi lozim.

Pozitsion noaniqlikda tovush kuchini kamaytirsh va uni dumolaqlash tavsiya etiladi. Pastga boruvchi oxangda "chuqurlashgan"jarangidan qochish uchun unlilailarni guyo oldiga, yuqori tishlarga tomon chiqarish kerak .

Bog'lanishli harakatda o'tish tovushlari yetarlicha silliqlash esa, mashqni stakkato boshidan kuylash lozim.

## Mashq №21-26

Barcha ovozlar, ayniqsa tenorlar uchun o'tish tonlarni shakllantirshga oid qator mashqlarni tavsiya etamiz. Bular bari bir mashqning variantilari bo'lib, har biri o'zining melodik va ritmik xususiyatlariga ega. 19 - mashqning qisqa frazalari mushak siqilishidan holi bo'lishi imkonini beradi. 21- va 22 – mashqlar avvalgilaridan murakkabroq. Barcha ulushlarni qat'iy ritmik kuylash

zarur. 23 -mashqni boshqa ovoz bilan boshlash, xayolan yuqori tonlar uchun pozitsiya tayyorlash lozim. 24 -mashqni yo aloqida frazlar bilan, yo tutilgan nafasda kuylanadi.

Mashq uch variantda beriladi, qo'shni tonlarning asta-sekin yuqori va pastga qarakati ovozni silliqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa tenorlarda o'tish tovushlarini o'zlashtirish uchun (mi-fa -diez -sol birinchi oktava) foydali. Pedagogik amaliyotda tasdiqlandiki, re-do, do-re, ma-mi, mi-ma bo'qinlarini birlashtirish bu maqsadga erishishda katta yordam beradi. Boshlovchi xonandalar birinchi variantni egallashi yetarli. O'rta va past ovozlar uchun tonallik individual tanlanadi.

## Nafas texnikasi. Kantilena.

Kantilena xonandalik nafasi, tovush tayanchi bilan uzviy bog'liq. Tovush sifati ustidagi ishdan tashqari xonadandalik nafasi jarayoniga har qanday aralashuv nafaqat foydasiz, katta salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Korpusning(tananing) to'g'ri holati. xonandalik tayyorgarliklik - holati nafas olishidan oldin turadi. U yengil, shovqinsiz bo'lishi kerak: pastki qovurg'alar kengaygan, fraza oxirigacha go'yo nafas olish holatida qoladi; hujum yengil, biroq aniq bo'lishi kerak. O'rgatish avvalida nafasni tez- tez yangidan boshlash kerak, yodda tutish kerakki, "nafassiz" kuylash nafasni haddan ziyod uzish kabi zararlidir. Bu bo'lim mashqlari xonandalik nafas, tovush tayanchi vazifalarini anglashga yordam beradi. Keyingi ishlar bu ko'nikmalarni mustahkamlaydi va avtomatlashtiradi.

### Mashq №27

Mashqdan yuqori tonlar pozitsiyasi va jarang bir tembrligini saqlash zarur. Qat'iy ritmik kuylanadi. Musiqiy - ijrochilik tomonga alohida e'tibor bo'lish kerak. Ikki variantda: baland va o'rta ovozlar uchun beriladi.

### Mashq №28

Mashq yuqori ayollar ovozlari uchun yuqori tovushlarni egallashda foydali. Legato va stakkatoda kuylashni almashtirish mumkin.

**Mashq №29**

Yuqori ayollar ovozlarida nafas va kantilenani rivojlantirish uchun mashq kuy asosida M.Glinkaning "Ruslan va Lyudmila" operasi finalidagi Lyudmila mavzusi yotadi. Ko'proq tayyorlangan xonanda ayollar uchun foydali.

**Artikulyatsiya. Diktsiya.**

Xonanda turli tovushlarni xonandalik ustanovkasini buzmasdan tezda talaffuz qilish imkoniga ega bo'lish uchun talaffuz apparati erkin bo'lishi kerak. Talaffuz aniqligi diktsiyani yaxshilashga yordam beradi.Tovush yaxshi shakllanishiga shuningdek erkin, siqilmagan pastki jag' ko'maklashadi. Uni biroz tushirib, ozgina orqaga suriladi. Talab etilgan holatini u yuz kvadrat mushaklari qisqarganda egallaydi; lablar tabassumda yoyiladi, yumshoq tanglay esnashdagi kabi tortiladi.

Bu bo'lim mashqlarida turli birikmadagi unli va undoshlarni kominasiyalash lozim. Pastki jag' siqilgan holatda yolashgan unlilarni ( ya,-ya, ye,ye, ney-ney , day -yay -yay) kuylash foydali. Diksiya aniqligi rivojiga yuqori lab harakatsizligi ("o'lik lab"), yuzlar kvadrat mushaklari horg'inligi kabi nuqsonlar to'siq bo'ladi. "ze-zo" yoki "ze -zu" bo'g'inlarga mashqlar ularni tugatishga ko'maklashadi, agar "ze" bo'g'inda tez harakat bilan lablar (keng tabassumdagi kabi) yoyilsa, "zo" yoki "zu" bo'g'inida esa ularni tezda oldinga tortilsa diksiya oydinligi uchun undoshlarni tez va aniq talaffuz qilish kerak. Haddan ziyod artikulyatsiya pastki jag'ni haddan ziyod orqaga olish yoki uni oldiga surish kabi estetik emas, qolaversa mushak siqishlariga olib kelishii, diktsiya aniqligini buzilishi mumkin, shuning uchun tavsiya etilgan barcha usullar ish momenti xarakteriga ega. Umuman artikulyatsiya apparatining barcha harakatlari, yuz mimikasi tabiiy chiroyli bo'lishi kerak.

**Mashq № 30-31**

Pastki jag'ni bo'shatish uchun mashqlar kuylayotib, pastki jag' harakati tekis va bog'lanishli jarangga xalaqit bermasligini kuzatish lozim. Til silliq yotishi, qattiq tanglay vat til o'rtasida yetarli bo'sh joy tuyg'usi paydo bo'lishi kerak.

## Rezonasiyalash

Yaxshi rezonasiyalash -tovush hosil qilish to'g'riligi ko'rsatgichidir.

Bosh rezonasiya ovoz jarangini favqulodda yaxshilab, unga jarangdorlik, "parvoz" kabi katta xonanlarda kuylash uchun zarur sifatlarni beradi. Bosh rezonasiyasi (ko'krak rezonasiyasi bilan moqirona foydalanganda) yanada erkin tovush qosil qilishga ko'maklashadi va nafas davomiyligini oshiradi.

Lablarni mahkam siqib uzaytiradigan "lya-lya-lya" undoshini kuylansa yuzning yuqori qismida vibrasiya tuyg'usi paydo bo'ladi, ovoz rezonatsiyalay boshlaydi. Bosh rezonatorlar rivojlanishiga "i" (ba'zan "e") unlishga kuylash ham ko'maklashadi. Uzuk tovush bilan nafas tayanchini his etib "mi" bo'qinlarini kuylash ham ovozga yanada jarang baxsh etadi.

Tavsiya etilgan usullar tayyor resept emas, ular talabaga talab etilgan jarang xarakterini tushunish va unga hamroh hislarini mustahkamlash imkonini beradi.

### Mashq №32

Mashqni dastlab og'izini yopib kuylanadi. Buni o'zlashtirgach, bo'g'inlarini yuzning yuqori qismida rezonasiyasini his etishga urinib kuylashga o'tiladi. "B"va "d" undoshlarini imkon boricha jarangli talaffuz qilish va "m", "n" jarangini cho'zish lozim.

### Mashq №33

Yarim tonlar "qat'iy" jarangini his etish, kantilena elementlarini egallashga qaratilgan mashq ayniqsa baland va o'rta erkak ovozlar uchun tavsiya qilinadi. Ikki variantda beriladi:birinchisi - baland, ikkinchisi past ovozlar uchun.

Dastlab o'rtacha keyinroq yanada sekin tempda ijro etish kerak. Tenorlar fa- diez major; o'rta ovozlar re major tonallikdan baland kuylamasligi tavsiya etiladi. Yuqoriroq tonallikda kuylash jarang kuchlanishga olib keladi. Yarim tonlarni sekinroq, jamlangan tovush bilan kuylanadi.

## Filillash

Filillash (filirovka) - bitta ton jarangdorligini ohista kuchaytirish yo kuchsizlantirish. Buni egallaganlik, ya'ni tovush kuchning barcha gradasiyalarini o'zlashtirganli yaxshi vokal maktabi, kasbiiy mahorat ko'rsatgichi hisoblanadi. Filillash uzoq muddat tinimsiz mehnatni talab qiladi, bu esa xonandaning ma'lum vokal - texnik tayyorgarligini: tinch, bir maromdagi xonandalik nafasi, ovoz yuritish erkinligi, bosh rezonasiyalashni talab qiladi.Bu sifatlarga ega bo'lgan o'rganuvchi tovushni filillashga kirishishi mumkin.

Piano xuddi forte kabi shakllantirilishi lozimligini unutmaslik lozim. Farq shundaki, forte nafas uzatish yanada intensivligini talab qiladi, pianoda nafas uzatish o'sha xonandalikpozisiyasida asta-sekin kamaytiriladi, unlilar oldinga yuqori tishlarga tomon faol "suriladi", lablar tabassumda yoyilgan, bosh rezonasiyalash yanada sezilarli.

Filillash usulini ishlay boshlashidan oldin talabaga ko'proq qulay bo'lgan dinamika turidan "P" dan "F" ga kuylash bilan cheklanish kerak. Asta-sekin har ikki yo'nalishda filillashga erishish lozim. Xonanda o'z imkoniyatlari chegarasini bilishi juda muhim. Xonandalik jarayonining estetik va fiziologik normalari buzilmasligi, forte baqiroqlik, pianissimo esa jarangsizlikka aylanib qolmasligi kerak. Pianissimoga filillash oxiri ayniqsa chiroyli iliq, saf tembr bo'yoqini talab qiladi, tovush to'xtaydi, go'yo havoda "erib ketadi".

## Mashq №34

Mashqni kuylashda fraza oxirigacha kuylovchilik pozitsiyasini saqlash, tembr go'zalligi, ovoz tekisligi va nafas tejamkorligiga e'tibor berish kerak.

## Mashq №35

Filillash usuli, nafas davomiyligi, uni taqsimlash malakasi, ovoz nozikligi va harakatlanganligi rivojlantiruvchi mashq. Major gammasi har bir pog'onali yuqori tutilgan tonini juda sekin, yumshoq, "a" tovushini aniq atakalab, jarangliligini asta ga yetkazib, keyin asta so'ndirib kuylanadi. Gammalar o'rtacha kuch bilan oxirigacha yuqori ton pozisiyasini saqlab kuylanadi.

Do major gammasining barcha yuqori tonlari filillanadi. Mashqni osonlashtirilgan varianti tavsiya qilinadi, u barcha ovozlar uchun erkin jaranglovchi tonlar va tegishli tonallikda foydali.

## Ovoz harakatchanligini rivojlantirish

Harakatchanlik texnikasi barcha ovoz turldari uchun kerak, u tovushga noziklik, yengillik va plastik baxsh etadi. Harakatchanlikni rivojlantirish uchun mashqlarni dastlab juda sekin tempda, uni erkinlik, pozitsion va intonatsion aniqlashnini egallagan sari tezlashtirib kuylash lozim.

Passajlar tipidagi mashqlarni ijro etganda nafas tejamkorligi, tovush dinamikasiga e'tibor qaratiladi. Tovushlarni hamma vaqt bosiqliq bilan, go'yo yashirin boshlash lozim. Yuqoriga melodik harakatda jarangdorlikni kuchaytirish lozim. Yodda tutish shartki, tez passajlarni kuylash yanada bosiq jarangni talab etadi, zero ovoz yengilligi va harakatchanligi yo'qolishi mumkin.

